

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI FILOLOGIYA KAFEDRASI

**4-BOSQICH “D” GURUH TALABASI LATOFAT QO‘CHQAROVANING
ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI FANIDAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Maktab adabiy ta’limida ruboiyni o‘qitish

Ilmiy rahbar: f.f.n. Valijon Qodirov

Andijon - 2011

REJA-MUNDARIJA:

Kirish.....

I. Adabiy ta'limda ruboiy janrini o'qitish asoslari: mavjud holat, muammolar.

I.1. Dastur va darsliklarda ruboiy janrining berilishi.....

I.2. Maktab adabiy ta'limida ruboiy janrini o'qitish muammolari.

I.3. Metodologik omilni belgilash jihatlari.

II. Adabiy ta'limda ruboiyni o'qitishning o'ziga xos jihatlari.

II.1. Tajalli nazariyasiga ko'ra ruboiylarni tahlil qilish.

II.2. Ruboiylarni janr kompozitsiyasiga ko'ra o'rganish.

II.3. Maktab darsliklaridagi ruboiylarni o'rganish Yo'llari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "O'qitishning ilg'or shakllari va yangi texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish"¹ asosiy masalalardan biri ekanligiga bejiz urg'u berilmagan. Mustaqil fikrlash tarzi, yuksak dunyoqarashga ega, dunyo va ko'ngil voqeliklarini teran his eta oladigan avlodni tarbiyalash uchun, avvalo, maqsadni amalga oshirish vositalari mukammal bo'lmog'i kerak. Shundagina globallashuv va integratsiya jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi paytda chetdan kutilayotgan mafkuraviy tahdid hamda ma'naviy inqirozlardan millatimiz ertasi bo'lmish yosh avlodni himoya eta olamiz. Bu borada ajdodlardan meros qolgan madaniy, ma'naviy obidalar, jumladan, adabiy asarlar biz murojaat etadigan, faoliyatimizda suyanadigan asosiy manbalar hisoblanadi.

O'zbekistonda yosh avlodni ma'nan yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko'tarildi. Chunki ma'naviyati boy kishilar yashaydigan mamlakat iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy topadi, jamiyatning kuchli bo'lishi ham muqarrardir. Targ'ibot-tashviqot, ta'lim-tarbiyaga daxldor shaxslar, idoralarning o'z faoliyatlarida jonkuyar, tashabbuskor hamda ijodkor bo'lishlari bu boradagi ishlarning samarasini ta'minlaydigan yetakchi omillardan sanaladi. Chunki «Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topolmaymiz»². Mamlakat rahbarining bu kabi ko'rsatmalari ijtimoiy soha kishilari, xususan, maorif xodimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Maktab adabiy ta'limida salmoqli o'rin tutadigan mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishga hozirgi kunda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillari milliy merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgargach, bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktab adabiyot darslarida mumtoz she'riyat namunalarini, xususan, yetakchi janrlardan biri bo'lgan ruboiyni o'qitish muammosi amaliyot uchun dolzarb bo'lib kelmoqda. Hozirgacha bu janr adabiyotshunoslikda keng o'rganilgan bo'lsa-da, metodikada haligacha alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan. Lekin amaliyotda bunga katta ehtiyoj bor. Shuning uchun ham umumta'lim maktablaridagi mumtoz adabiyot o'qitishning, jumladan, ruboiy janrini o'qitish ahvolidan kelib chiqib, ushbu janrini o'qitishning metodik xususiyatlarini amaliy jihatdan o'rganishni dolzarb deb bildik va mazkur mavzuni tanladik.

¹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997. 27-b.

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. 29-b.

Muammoning o'rganilish tarixi

Metodika adabiyotshunoslik ilmi yutuqlariga tayanadi, uning nazariy asoslariga tayanadi. Shuning uchun metodikada qaysidir bir muammo o'rganilar ekan, uning adabiyotshunoslikdagi ahvoli, talqiniga ham nazar tashlanadi. Shu bois biz ham ruboiy janrining adabiyot ilmda o'rganilishiga tegishli asosiy ishlarga to'xtalib o'tamiz.

Ruboiy janrini nazariy jihatdan fundamental tadqiq qilish o'tgan asrning 60-yillar oxirida Muhammadali Yunusov izlanishlari bilan boshlangan desak, xato bo'lmaydi. Olim adabiyotshunoslikda ilk bor ruboiyning mazmuniy kompozitsiyasi haqida yozgan³. Undan so'ng taniqli olim I.Haqqul ruboiy janri ustida ilmiy ish olib bordi va "O'zbek adabiyotida ruboiy"⁴ nomli risola yaratdi. Adabiyotshunos Ergash Ochilov ham keyingi yillarda ruboiy janri haqida kuzatishlar olib bormoqda. U o'z izlanishlari natijalarini "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining bir nechta sonida e'lon qildi⁵.

Maktabda adabiyot o'qitish muammolari A. Zunnunov, S. Dolimov, H. Ubaydullaev, Q. Ahmedov, N. Hotamov kabi metodist olimlar tomonidan o'rganilib, maxsus qo'llanma va risolalar shaklida nashr etilgan⁶.

Metodkada keyingi o'n besh yil ichida urf bo'lgan yozilgan darsliklar uchun yaratilgan metodik qo'llanmalarda ruboiyni o'qitish yuzasidan ma'lum tavsiyalar berilgan⁷.

Metodist olim V.Qodirovning "Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolar va yechimlar" monografiyasida⁸ maktabda o'qitiladigan mumtoz she'riyat namunalari qatorida ruboiyni o'qitish yuzasidan ham oldingi ishlarga qaraganda ancha keng metodik tavsiyalar berilgan. Lekin hozirgacha maktabda ruboiy janrini o'qitish bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot olib borilmagan. Bu ayni paytda mavzuning muhimlik darajasini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi

³ Yunusov M. Barhayot an'analar. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1969.

⁴ Haqqulov I. O'zbek adabiyotida ruboiy. T.: «Fan», 1981.

⁵ Ochilov E. O'zbek adabiyotida ruboiyning o'rganilishi. "O'zbek tili va adabiyoti", 2005. № 6. B. 19-32.

⁶ Dolimov M., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 1967; Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi tarixidan ocherklar. T.: "O'qituvchi", 1977; Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., "O'qituvchi", 1980; Zunnunov A., Hotamov N. Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 1992.

⁷ Yo'doshev Q., Husanboyeva Q. O'qituvchi kitobi. 6-sinf darsligi uchun metodik qo'llanma. - T.: "O'qituvchi", 2001.; Yo'doshev Q., Qodirov V. Adabiyot saboqlar - 7. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.: "Sharq", 2005.; Olimov S. va boshqal. Adabiyot - 8. Metodik qo'llanma. - T.: G'. G'ulom nomidagi nash.-matbaa uyi, 2006.

⁸ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolar va yechimlar. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.

Ushbu bitiruv malakaviy ish umumta'lim maktablarida ruboiy namunalarini o'qitishning o'ziga xos jihatlarini belgilash, o'qitish samaradorligini oshirishning metodik tadbirlarini ishlab chiqish, ruboiylarni o'rganishning amaliy jihatlarini tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari

BMI oldiga qo'ygan vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi

- adabiyot dasturi va darsliklarida ruboiyning berilishini tadqiq etish;
- o'rta maktablarda ruboiy janrini o'qitishning hozirgi kundagi ahvolini o'rganish va uni tahlillash;
- ruboiy o'qitishdagi murakkabliklar tavsifini berish;
- tajalli nazariyasi o'qitishning metodologik asosi ekanligini dalillash;
- darsliklarda berilgan ruboiy namunalarini janr xususiyatlaridan kelib chiqib tahlillash namunalarini berish;
- ish natijalariga suyangan holda muayyan xulosalar chiqarish, umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-nazariy asoslari

Bitiruv malakaviy ishda adabiyotshunoslik va metodika ilmlarining so'nggi yillardagi yutuqlariga suyanildi. Adabiyot ilmida mumtoz adabiyot tadqiqotchilari M.Yunusov, I.Haqqulov, E.Ochilov va boshqalarning ilmiy ishlari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, metodikaga oid qarashlarda Q. Yo'ldoshev, S. Matchonov, M. Mirqosimova, Q. Husanboeva hamda V.Qodirovlarning ilmiy ishlarida hal qilinayotgan muammolar bilan bog'liq ravishda maktabda ruboiy namunalarini o'qitish bilan bog'liq ilmiy va amaliy natijalarga ergashildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati

Bitiruv malakaviy ish natijalaridan universitetning filologiya fakulteti talabalari amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda, mustaqil ishlarda foydalanishlari tavsiya qilinadi. Shuningdek, adabiyot muallimlari mumtoz adabiyot o'qitishda ishning natijalariga suyanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Adabiyot dasturi va darsliklarida ruboiy janrining berilishi

Dastur o'qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy maibadir. Unda amaliy harakatga ko'rsatma ham, eng muhim ma'lumotnoma ham mujassamlashgan. Dastur eng muhim davlat hujjati bo'lib, uni bajarish majburiydir. U har bir sinfda qaysi asarlar qancha vaqt mobaynida qanday talqin bilan o'qitilishini belgilab beradi. Shuning uchun o'qituvchi u yoki bu asarni qanday o'tishni bilmasa yoki ikkilansa, albatta, dasturga murojaat qilishi lozim. Joriy adabiyot dasturlarida ruknlarga hamda xronologiyaga asoslangan o'qitish tamoyili kuzatiladi. 5-7 sinflarda tanlangan asarlar o'z mohiyatiga ko'ra ruknlarga biriktirilib o'qitilmoqda. Bir rukndagi asarlar tarbiyalanuvchilarda u yoki bu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, 5-sinfda «Hikmat durdonalari», «Ertaklarning sehrli olami», «Mumtoz adabiyotga sayohat», «Bolalikning beg'ubor olami», «Vatanni sevmoq iymondandir» ruknlari mavjud. Dasturga juz'iy o'zgartirish ya'ni bir-ikki asar o'rniga boshqasini o'tish ruxsati beriladi. Lekin almashtirilgan asar ko'zlangan badiiy-estetik hamda didaktik talablarga javob berilishi lozim. 8-9-sinflarda esa barcha adabiy material xronologiya asosida berilgan.

O'rta maktab dastur va darsliklarida ruboiy janri ruknlarda shoirlarning joylashgan o'rniga qarab, yuqori sinflarda esa dasturning mumtoz adabiyotga ajratilgan qismidan joy olgan. Mustaqillikdan so'ng bir necha marta dastur almashtirildi. Har almashtirilganda boshqa janrlar qatori ruboiy ham u yoki bu sinfga olindi yoki bir shoir ruboiy o'rniga boshqasi kiritildi. Mustaqillikdan keyingi dastur va darsliklarni ko'zdan kechirsak, istiqlol yillaridagi dastlabki darslik – B.Sarimsoqov rahbarligidagi 5-sinfda Navoiyning bir nechta ruboiylari keltirilgan edi va ular amaliyotda o'zini oqlagan edi⁹. Tanlangan ruboiylar nasihat tarzidagi go'zal badehalar bo'lib bolalar yoshiga to'g'ri keladi. Bu ruboiylar o'quvchilar yuzlashgan asl mumtoz asarlar bo'lib, ularning didaktik ahamiyati quyidagichadir:

- o'quvchilar lug'atdan foydalangan holda asar mazmunini anglashga, uni tahlil qilishga ilk bor tutinadilar va bu borada dastlabki ko'nikmaga ega bo'ladilar;

- til jihatidan bolalarga ancha qiyin ko'rinsa-da, ruboiylardagi misralarning sintaktik qurilishi o'zbek tilidagi gap bo'laklarning joylashish tartibiga mos keladi, ularda arabiy, forsiy izofaning, sintaktik inversiyaning deyarli yo'qligi tahlilni bir muncha osonlashtiradi. Bu mumtoz namunalarni ilk bor mustaqil tahlil qilayotgan 5-sinf yoshidagi bola uchun ahamiyatlidir;

⁹Sarimsoqov va boshq. O'zbek adabiyoti. 5-sinf darsligi. -T.: "O'qituvchi", 1997. 92-b.

- ilk bor she'riyatda faol qo'llanadigan va tahlilda murakkablik tug'diradigan lug'aviy birliklar: eran, anga, birla, xo'b kabi arxaik so'zlar, -g'a, -din kabi morfologik ko'rsatkichlar, zavar, abtar, matlub, marg'ub kabi o'zlashgan so'zlar, yor (do'st ma'nosida), ag'yor kabi she'riy obrazlari bilan tanishtiriladi;

- ruboiy misolida mumtoz janrlar, aruz istilohlari: aruz vazni, hazaj, axram va axrab (bu atamalar faqat ma'lumot uchun beriladi, chuqur kirilmaydi), ruboiyning qofiyalanishiga ko'ra shakllari, qofiya, radif haqidagi nazariy ma'lumotlar singdiriladi.

Afsuski, keyingi dasturga bu ruboiylar kiritilmadi, oxirgi dasturga ko'ra qo'llanayotgan 5-sinf Adabiyot darsligidan¹⁰ Bobur ruboiylar joy olgan. Aytish mumkinki, bu ruboiylar ham yuqorida qayd etilgan ahamiyatli jihatlar uchun xizmat qila oladi. Darslik mualliflari shoir ruboiylarini beribgina qolmay, ularning to'rttasini mukammal qilib ham berganlar. Bu tahlillar 5-sinf o'quvchisining yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishi hamda tarbiyaviy yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Qolgan o'ndan ortiq ruboiylar ajratilgan soat, Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarning bilimi va saviyasidan kelib chiqib o'rganishni dars ijrochilari ixtiyoriga qoldirilgan. Shoir ruboiylar 5- va 6-sinflarda oldindan ko'p darsliklarga kiritilgan. Bobur ijodini maktabda o'rganish yuzasidan kuzatishlari V.Qodirovning alohida maxsus qo'llanmasida bayon etilgan¹¹. Ahamiyati:

- shoir ijodiga ajratilgan bir soat davomida o'quvchilarning kichik janrlarni o'rganish bo'yicha egallagan malakalari mustahkamlanadi;

- bu o'rinda asosiy yangilik shu bo'ladiki, ayrim asarlar biografik xarakterda bo'lishi mumkinligi, ularni tahlil qilish uchun muallifning hayot yo'liga doir ma'lumotlarni inobatga olish zarurligi to'g'risida tasavvurga ega bo'linadi.

Joriy dasturdan oldin amalda bo'lgan dasturga ko'ra 6-sinfda¹² Navoiy ruboiylari o'qitilgan. Lekin bu sinfda u qit'a janri bilan birgalikda o'qitilishi ko'zda tutilgan. Avvalo ruboiy haqida qisqacha nazariy ma'lumot berilgan. Xalq og'zaki ijodidagi to'rtlik yozma adabiyotdagi bu janrga asos solgani, qofiyalanishi hamda qofiyalanishiga ko'ra qofiyaning ikki tur – xosa va tarona shakli bo'lishi haqida, Shuningdek, o'zbek adabiyotida kimlar ruboiy janriga hissa qo'ganligi muxtasar bayon qilingan. Darslikda esa hir bir ruboiy misrama-misra tahlil qilingan, ularning mazmuni, badiiy jihatlarini sharhlangan hamda bugungi kunga bog'lab, didaktik ahamiyati oshirilgan. Bu sinfda shoirning “Jondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz”, “G'urbatta g'arib shodmon bo'lmas emish” birin-ketin berilib, har bir ruboiydan keyin uning tahlili keltirilgan. Bu oldingi darsliklarda kuzatilmagan shakl bo'ldi, deyish mumkin. Ikki ruboiy tahlili bilan berilgach, ular so'ngidan uchta: “Jongimdagi “jim” ikki dolingg'a fido”, “Zohid, sanga hur,

¹⁰ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. 5-sinf darsligi. T.: “Ma'naviyat”, 2007.

¹¹ Qodirov V. Maktabda Bobur ijodini o'rganish. -T.: Respublika ta'lim markazi, 2009.

¹² Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. 6-sinf darsligi. T.: “Ma'naviyat”, 2005.

menga jonona kerak”, “O‘lsam yasamang munda mozorimni mening” ruboiylari o‘quvchilar ixtiyoriga havola qilinadi. Ular darslikdagi tahlil qilingan ikki ruboiy qolipida shu to‘rt ruboiyni ulgurganlari qadar sinfda, qolganini uyda tahlil qilishlari kerak bo‘ladi.

She‘rlarni o‘rganish asnosida ilgari orttirilgan ko‘nikmalar va malaka jonlantirilib, keyingi mumtoz janrlarni o‘zlashtirishda qulaylik tug‘diradi:

- kichik janrlardagi asarlarni o‘rganish asosida she‘rlarni tahlillash bo‘yicha ko‘nikma shakllantiriladi. O‘quvchiga engillik tug‘dirish, yordam tariqasida lug‘atda nafaqat so‘zlar, balki ma‘no chiqarishlari qiyin bo‘lgan izofaviy ibora va jumalarning ma‘nolari ham berib boriladi;

- ruboiy va qit‘alarda ilgari surilgan falsafiy fikrlar, hayotiy mulohazalar, kuzatishlar sharhlanadi va ayni paytda ularning ifodasiga alohida e‘tibor qaratiladi, shoirning mahorat qirralariga alohida urg‘u beriladi;

- qit‘a haqida ma‘lumot, ruboiy va qit‘a janrlarining o‘xshash va farqli tomonlari to‘g‘risida tushuncha beriladi.

1993 yildagi dastur va darslikka ko‘ra 9-sinfda Pahlavon Mahmud ijodidan 27 ruboiy o‘rganish uchun tavsiya qilingan¹³. Albatta, bu ruboiylarning hammasini ajratilgan ikki soat davomida o‘rganilmaydi, bunga vaqt etmasligi aniq. Bu kabi vaqtga nisbatan asarlarning ko‘p berilishi o‘qituvchiga o‘zining va sinfning imkoniyatidan kelib chiqib, u yoki bu ruboiyni tahlil qilish uchun tanlash imkonini beradi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarining bu sinfda berilishi quyidagi ahamiyat kasb etar edi:

- quyi sinfdan shakllantirilib kelinayotgan kichik mumtoz janrlar, xususan, ruboiy janrini tahlil qilish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar takomiliga etkaziladi;

- ruboiy janri bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar boyitiladi, ularning nafaqat shakliy belgilari, ayni paytda vazn xususiyatlari, mavzu ko‘lami va janr tabiati tushuntiriladi;

- o‘lkamiz tarixida bo‘lgan adabiy harakatlar, asarlarning til jihatlari, fors tilidagi adabiyot haqida ham ma‘lumot beriladi;

- shoir ijodi misolida o‘quvchilarning tasavvuf ta‘limoti va she‘riyati yuzasidan tushunchalari kengaytiriladi ham so‘fiyona ruboiylarni tahlillash yo‘riqlari beriladi.

Joriy dastur bo‘yicha 9-sinfda faqat Boburning ruboiylari o‘qitish uchun tavsiya etilgan. Faqat bir narsa kamchilik bo‘lib tuyuladi. Ya‘ni 5-sinfda berilgan ruboiylar bu sinfda qayta beriladi. BizningCha, bu sinfda boshqa shoirlarning ruboiylari berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki imkon qadar maktab davrida o‘quvchilar bir emas, bir necha adaiblar ijod namunalari bilan tanishi adabiyotimiz haqida kengroq tasavvur tug‘dirishga yordam beradi.

¹³ O‘zbek adabiyoti. 9-sinf. (Tuzuvchilar: N.Komilov, B.To‘xliiev) T.: “O‘qituvchi”, 1993. 166-169-b.

Maktab adabiy ta'limida ruboiy janrini o'qitish muammolari

Metodist olim V. Qodirov o'zining "Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolar va yechimlar" monografiyasida shunday yozadi: "Darslarda mumtoz asarlarni o'rganish xalq og'zaki ijodi namunalari, yangi davr adabiyotini o'qitishdan ko'ra murakkabroq. Ana shu murakkablik nimada ekanligini aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish lozimdir"¹⁴. Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishdagi murakkabliklar ruboiy janri uchun ham xosdir. Quyida mana shu jihatlar to'g'risida to'xtalamiz.

Mumtoz adabiyot namunalarni, jumladan, ruboiyni tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, avvalo, asarlarning lug'aviy tarkibidagi qiyinchilikda ko'rinadi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llangan. Olinma so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning *lug'aviy* hamda *matniy* (kontekstaul) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. "Agar tojikcha so'zlar o'zbek tiliga so'zlashuv tili orqali, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan kirgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali... kirgan. Ayrim mutaxassislarning fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilida arabcha so'zlar bundan 20-25 yil ilgari lug'at tarkibining 13% dan 20% gacha bo'lgan miqdorini tashkil etgan"¹⁵.

Ilm-fan, ta'lim, adabiyot va san'atda arab va fors tillarining mavqei asrlar davomida baland bo'lgan. Bir necha yuz yillar davomida ilmiy asarlarning aksari arab tilida, badiiy asarlar turkiy til bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan. Shu bois bu ikki tilga mansub lug'aviy birliklar o'zbek so'zlashuv hamda kitobiy tilidan mustahkam joy olib, ko'plab so'zlar faol lug'at boyligimizga aylangan. Mumtoz shoirlarning deyarli barchasi arab va fors tillari mukammal o'rgatiladigan madrasalarda o'qiganlar, bu tillarda yaratilgan juda ko'p asarlarni o'qiganlar. Shoirlarning badiiy tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Ijodiy ong, badiiy tafakkurdagi tayyor forsiy, arabiy adabiy qoliplar, shakl va iboralar asarlarni yaratish jarayonida o'z-o'zidan quyilib kelavergan. Natijada o'zbek tilining faol lug'at boyligidan joy olmagan, so'zlashuv tiliga o'zlashmagan talay so'zlar mumtoz asarlarda qo'llanilgan. Ayni shu faqat badiiy asarlardagina uchrab, tilga o'zlashmagan so'zlar mumtoz asarlarning "qiyin"ligiga sabab bo'layotgan ichki omildir. Haqiqatan ham o'qilayotgan asardagi har uch-to'rt so'zning bittasi notanish, nutqiy faoliyatida qo'llanilmagan bo'lsa, kishining ishtiyoqi so'nadi. Masalan, 5-sinf Adabiyot darsligida berilgan Boburning "Beqaydmen-u, xarobi siym ermasmen", oldingi darsliklarda berilgan Navoiyning "Ahbob, dengizki, xonu mondin tama' uz, Ne xonu, ne mon,

¹⁴ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolar va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.

¹⁵ Aliev A, Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T.: "O'zbekiston", 1994. 27-b.

kavnu makondin tama' uz", Munisning "Shoho, fuqaroki munisi g'amdurdirlar, Bedordil-u ko'zlari purnamdurlar" kabi ruboiylaridagi misralarini keltirish mumkin.

Mumtoz matnlarni, xususan, ruboiyni tushunishga ularda arab va fors tillardan o'zlashgan affiks, perefiks va affiksoidlarning ko'p qo'llanishi to'siq bo'layotganligi ham haqiqat. Gap o'zbek tiliga o'zlashib ketgan, ammo bu qo'shimchalar qo'shilishi tufayli "begonalashib", tushunarsiz bo'lib qolgan so'zlar haqida bormoqda. Aslida bu tillardan ko'plab so'zlar tilimizga o'zlashgan. Masalan, arab tilidan o'tgan *taraf* so'zi ko'plik ma'nosini beruvchi "-a" qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yuzaga kelgan *atrof* so'zi ham alohida leksema sifatida olingan. Shu kabi *xabar* va *axborot*, *sir* va *asror* kabi birlik – ko'plik munosabati, *ajab* va *taajjub*, *aloqa* va *taalluq*, *sharq* va *mashriq*, *qabr* va *maqbara*, *handasa* va *muhandis*, *shirk* va *mushrik* kabi leksik birliklar alohida mustaqil leksik birlik sifatida o'zbek tiliga o'zlashgan. Ularni o'zbek o'quvchisi yaxshi tushunadi va o'z nutqida erkin qo'llaydi. Agglyutinatib tabiatga ega bo'lgan o'zbek tilida o'zak qo'shimcha qo'shilishi natijasida deyarli o'zgarishsiz qo'llanib, leksik ma'no anglatadigan shaklini saqlaganligi tufayli, o'zimizniki bo'lib qolgan bir qator chet so'zlarning faol lug'atimizga o'zlashmagan perefiksli va affiksoidli shakllarini nafaqat o'quvchilar, balki kattalar ham tushunmaydilar. 9-sinf darsligida¹⁶ bu kabi ko'plab misollarni uchratish mumkin. Ulardan ayrimlarini keltiramiz.

Mu- old qo'shimchasiga: *Iltimos – multamas*.

Dedi: "Kishvar beray, kech bu havasdir".

Dedi: "Bechora, kech bu multamasdin!" (82-bet)

Sayqal – musayqal.

Xud yuzi garchi musayqaldurur,

Girdi uzor anda mutavvaldurur. (68-bet)

Ma- old qo'shimchasiga: *Talab – matlub*.

Ko'rungach ul jamoli olamoro,

Aning matlubi bo'ldi oshkoro. 78-b

Zulm – mazlum:

Dedi: bu necha mazlumi sitamkash,

Falak bedodin bo'lgan alamkash. (77-bet)

Ta- old qo'shimchasiga: *Haqiqat – tahqiq*.

Jahonda qolmadi ul etmagan ilm,

Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. (72-b)

a- ko'plik old qo'shimchasi: *Sir – asror*.

¹⁶ Yo'doshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: "Yangiyo'l poligraph service", 2006.

Yuzinda ishq asrori yozilg'an,
Ichinda dard ta'vizi qozilg'an. (71-b)

Fusun – afsun.

Bo'lub afsunu makru hiylatangez,
Anga ne zulmlarkim qildi Parvez. (84-b)

Mumtoz matnlarda qo'llangan ayrim umumturkiy va o'zlashgan so'zlarning asar yozilgan davrdagidan shakli o'zgarganligi, ma'nosi kengaygan yoki toraygani ham ularni tushunishda muayyan qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. O'quvchilar bu so'zlarning o'sha davrdagi ma'nolaridan bexabarliklari bois matn ma'nosini noto'g'ri tushunadilar. Aytaylik, *bo'lmoq* va *o'ltirmoq* so'zlarining mumtoz adabiy shakli bo'lmish *o'lmoq* va *o'ltirmoq* so'zlarini o'quvchilar dastavval o'lmoq – joni chiqmoq, o'ldirmoq ma'nolarida tushunishlari ham kuzatildi. Yoki hozirgi kunda keng qo'llanadigan "mehnat" so'zini olaylik. Uni o'quvchilar jismoniy yoki aqliy faoliyat, ish deya qabul qiladilar. Shuning uchun Navoiyning: "**Vale yuz muncha mehnat bo'lsa erdi, Ne yuz, ming muncha shiddat bo'lsa erdi**"¹⁷ satrlarini "Va lekin yuzta shuncha ish bo'lsa edi, yuzta emas, mingta shunday shiddat bo'lsa edi" tarzida noto'g'ri qabul qiladilar. Shuningdek, "noumid" so'zining arxaik dubleti qo'llangan "**Meni gar umrdin charx etti navmid, Jahon mulkida shoh bo'lsun jovid**" baytini o'quvchilar tushunishmaydi. Shoirning: "**Manga Farhod ishq tuhmati bas Ki, Chehra ko'rmayin ul zoru bekas**" satrlaridagi "tuhmat"ni "birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton"¹⁸ ma'nosida tushunadilar. Holbuki, bu so'z baytda "ovoragarchilik" ma'nosida qo'llangan. Shuningdek, "rost" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilganidek, "to'g'ri", "adil", "tik", "chin", "haqiqat", "haq", kirish so'z¹⁹ ma'nolarida kelsa, Navoiy asarlarida bulardan tashqari, "ma'qul", "munosib", "toza", "pokiza", "o'xshash", "mos", "xuddi" ma'nolarini ham beradi²⁰. Darslikdan "Elining lafzi qalam bila rosttur" deb o'qigan o'quvchi jumlaning "eling lafzi qalam bilan to'g'ridir" deb noto'g'ri tushunadi.

O'rganilayotgan asar tilining hozirgi tilimizdan farq qiluvchi sintaktik va uslubiy o'ziga xosliklarga egaligi ham mumtoz matnni tushunishda qiyinchilik tug'diradi. O'zbek adabiy tili tarixiga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalarda mumtoz asarlarning leksik, morfologik jihatlari keng o'rganilgan holda sintaksisi, uslubiy tomonlari yaxshi tadqiq etilmagan. Buning natijasida mazkur sathlar yuzasidan o'qituvchilar etarli tushunchaga ega bo'lmaganliklari bois bunday bilimlar o'quvchilarda ham shakllantirilmaydi. She'riy va nasriy matnlarda uchraydigan kesim

¹⁷ Qosimov B. va boshq. Adabiyot. Majmua. 10-sinf darsligi. -T.: "O'qituvchi", 2004. 198-bet.

¹⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, Moskva, "Rus tili", 1981. 241-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, Moskva, "Rus tili", 1981. 627-bet

¹ Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. II jild, -T.: "Fan", 1983. 630-bet.

tarkibiga kiruvchi *-durur*, *-turur* qo'shimchalarini o'quvchilar mustaqil o'zak sifatida qabul qiladilar. Bir qator darsliklarda bu qo'shimchalarning o'zlari birikib kelgan so'zlardan ajratib berilishi yanglishishni yanada kuchaytiradi.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatning ayrim poetik qirralari arab tili va yozuvi bilan ham bog'liqdir. Maktab uchun dastur va darslik tuzgan mualliflar yozuv bilan aloqador san'atlarni yosh avlodga ilinganlari bois majmualarga kitobat san'ati asosiga qurilgan she'rlarni kiritganlar. Navoiyning: *“Jonimdag'i jim ikki dolingg'a fido, Andin so'ng alif toza niholingg'a fido. Nun dog'i anbarin hilolingg'a fido, Qolgan ikki nuqta ikki xolingg'a fido”* ruboiysidagi go'zal ifodani, muallifning badiiy kashfiyotini anglash uchun hech bo'lmaganda arabiy alifbo harflarining shaklini tanish kerak bo'ladi. Lekin o'quvchilar eski o'zbek yozuvidan bexabarliklari uchun mazkur satrlardagi go'zalliklarni ko'ra olmaydilar.

Obrazlar tizimi, ular o'rtasidagi munosabatlar, ularning tabiati, xarakteri hamda tashqi tasvirining qat'iy qolipga solinganligini idrok etmaslik asarni to'g'ri tushunmaslik va mumtoz asarlardan bezitishga olib kelishi mumkin. Mumtoz she'riyatda ishtirok etayotgan qahramonlar soni, ular o'rtasidagi munosabat, tasvir va holatlari bir xil qolipda va o'zgarmasday tuyuladi. Maktablarda dars berayotgan o'qituvchilar mumtoz shoirlar aksariyati bir-birlarini takrorlaganliklari, tasvir, ifoda deyarli bir xil ekanligi, bu esa qator darslarda muayyan fikr va tahlil takrorlanishiga olib kelganligini aytishadi.

Vazn va qofiya ilmlarining murakkabligi, ularni o'rgatishga maktab dasturida deyarli vaqt ajratilmagan. Bundan o'n yillar oldin maktab adabiy ta'lim dasturidagi kamchiliklar to'g'risida marhum adabiyotshunos va metodist olim To'xta Boboev o'z fikrlarini bildirgan edi: “... dasturda o'zbek she'riyati poetikasi asoslaridan: Yusuf Xos Hojib, Atoiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodlarini o'rganish jarayonida aruz ilmi haqida umumiyroq tarzda bo'lsada nazariy tushuncha berishni ko'zda tutadi – bu durust... Dasturni ko'zdan kechirganda o'zbek aruzida faqat ramal bahrigina turkiy tilga mos ekan-da degan yuzaki taassurot qoldi-da. Hajaz-chi, rajaz-chi, mutaqorib-chi... degan savollar tug'ilishi tabiiy. Dasturda ... “barmoq vazni” degan istilohning o'zi yo'q... Shuningdek dasturda qofiya ilmi va poetik sintaksis butunlay unutilgan. O'zbek she'riyatida 300 dan ortiq badiiy (she'r) san'atlar qo'llanilgani holda dasturda faqat tazod, husni ta'lil, radd ul-matla' eslatilgan xolos... Dasturda maxsus tasvir vositalari ham o'ta kambag'al ko'rinadi... Achinarli tomoni shundaki, dasturda adabiy-nazariy tushunchalar, shu jumladan she'r ilmi masalalarini o'rganishga bir soat ham ajratilmagan”²¹. Bu tadqiqot yozilgan paytdan keyin tuzilgan dasturlarda adabiy-nazariy tushunchalarni berishda ijobiy siljishlar bor, lekin she'r va qofiya ilmiga munosabat o'sha-o'sha. Bir qarashda vazn bilan bog'liq bilimlar adabiyot darslarida u darajada ahamiyatli ko'rinmasligi mumkin. Chunki vaznni

²¹ Boboev T. Oliy o'quv yurtlarida o'zbek she'riyati poetikasi asoslarini o'rganish. DDQ. -T.: 1997. 32-b.

bilmay ham she'rni tushunish, uning badiiyatini tahlil qilish mumkin. Lekin bu yuzaki taassurot. Vazn va qofiya to'g'risidagi bilimlar avvalo o'quvchilarda aruz she'riyatining muayyan qat'iy qoliplar asosiga qurilganligini, aruziy tafakkur qirralarini anglashga yordam beradi. Qolaversa, bu vaznda yozilgan she'rlarni o'qish texnikasi asosan she'r ilmi va ma'lum darajada qofiya bilan chambarchas bog'liq.

Mumtoz ruboiylarni o'rgatishdagi keyingi murakkablik tasavvuf ta'limotining mumtoz asarlar poetikasiga ta'siri masalalari bo'yicha o'qituvchilar bilimining etarli emasligidadir. Tasavvuf bizda nisbatan keyinroq o'rganishga kirishilgan ilm bo'lib, unga bo'lgan munosabat, qarashlar endigina shakllanmoqda. U haqida etarli tasavvur va to'xtamga kelish uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerak.

90-yillar boshlarida adabiyot muallimlari tasavvuf ta'limoti to'g'risida eshitib-eshitmay, dastur va darsliklarga so'fiyona asarlar kiritilgan edi. Bugungi kunda ham darsliklarda o'rganish uchun havola etilayotgan mumtoz asarlarning aksariyati tasavvufga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan adiblarga tegishli. Ayniqsa, ishqiy mavzudagi she'rlarga munosabatni, tahlil va talqindagi yondashuvni oydinlashtirish zarur. Ularni o'rganilayotganda ko'pincha yor obrazi zohiriy ma'noda inson (ayol), botinda Alloh nazarda tutilgan qabilidagi tahlillar urf bo'lib qoldi. Hamma she'rlarda ham shundaymi? Agar "ha" deyilsa, buni qanday isbot etiladi? "Yo'q" deyilsa, qaysi she'rlarda yor faqat inson obrazini, qanday she'rlarda zohirida insonu, botinida yaratgan ifoda etilgan? Yor doim ham botinda Allohmi yoki boshqa xilqatlarni ham ifoda etadimi? Mustaqillikdan keyin yaratilgan ayrim darsliklarda berilgan mumtoz she'rlarni tahlil qilish va tushuntirish uchun tasavvuf haqidagi jild-jild kitoblarni o'qish kerak bo'ladi, bu satrlarning har birini izohlashga soatlar etmaydi.

Xulosa qilib aytsek, adabiyot muallimi ruboiylarni o'qitishdan oldin ularni o'quvchilarga tushuntirishda qanday murakkabliklarga duch kelishlarini yozshgi tasavvur qilib olishi, avvalo bunga o'zi tayyor bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarini ham tayyorlashi lozim. Buning uchun

- har darsda mumtoz she'riyatda ko'p uchraydigan notanish so'zlar lug'atini yozdirib, yodlatib borishi maqsadga muvofiq;
- mumtoz she'rlarga bag'ishlangan har darsda uchragan old qo'shimchalarni tanishtirib, ularning o'zbek tilidagi muqobilini ham keltirib o'tish yaxshi natija beradi;
- bolalarning yoshidan kelib chiqib, aruz vazni to'g'risida tushuncha ham berib borish she'rlarga xos musiqiylikni, jozibani anglashga yordam beradi;
- mumtoz she'rlarni o'rganishda har safar ularning qofiyasiga ham e'tibor berish kerak, bunda qofiya unsurlariga, hech bo'lmasa, raviyni toptirish kerak;
- darsliklarda berilgan she'riy san'atlarni kengaytirgan holda, hayotga bog'lab tushuntirish o'quvchilarning mumtoz ruboiylarni chuqur his qilishlariga yordam beradi;

- yuqori sinflarga o'tgach, tasavvuf ta'limot to'g'risida tushuncha berish, ruboiylarning so'fiyona ma'nosini ham izohlatish kerak.

Ruboiylarni o'qitishda metodologik omilni belgilash ahamiyati

Adabiy ta'lim uchun belgilangan bosh maqsad – komil inson tarbiyasini amalga oshirish uchun har qanday ijodiy, ijtimoiy faoliyatda bo'lganidek, uning falsafiy, nazariy asosi bo'lmish metodologiyani belgilab olish zarur. Bu borada professor Q. Yo'ldoshev shunday yozgan edi: "...musulmon sharqi uchun butun olam hodisalarini izohlaganda ham, badiiy ijod namunalari tushuntirganda ham asrlar mobaynida qo'l kelgan tajalli, jilva nazariyasi mavjuddirki, u badiiy voqelikni boshqa har qanday qarashlardan ko'ra to'laroq anglatishga qodirdir. Qadim Turkistondagi maktablarda badiiy adabiyot asrlar davomida tajalli nazariyasiga tayanilgan holda o'qitilib kelingan. Negaki, badiiy adabiyotning, Chinakam badiiy asarlarning asosiy qismi yaratilishida tajalli tamal toshi vazifasini o'tagandir. Tajalli olam hodisalarini anglatishda tasavvuf ta'limoti namoyondalari asoslanadigan nazariy qarashdir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta'lim o'quvchilarda ma'naviy sifatlarining shakllanishiga, bolalarda yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo'rqish, go'zalligidan zavqlanish singari xislatlarni barpo etishga ahamiyat beradi. O'quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg'ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Bunday tamoyillarga tayanib ish ko'radigan maktab talabalari o'zgalarning g'amiga sherik bo'lishga, adolatsizlikka befarq bo'lmaslikka, go'zallikdan lazzatlanishga qodir kishilar bo'lib tarbiyalanadilar. Tajalli asosida ish ko'radigan adabiy ta'lim komil shaxs tarbiyalashni maqsad deb hisoblaydi"²².

Bu fikrlarni adabiy ta'limda o'rganish uchun jalb qilingan barcha asarlar uchun, aytaylik, jahon adabiyotining G'arb namunalari o'rganishga tatbiq etib bo'lmas, lekin mumtoz Sharq hamda o'zbek adabiyoti namunalari bu nazariy asossiz tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi. Adabiy ta'limdagi eng katta qusurlardan biri o'qituvchilarning o'zi o'rganilayotgan asar uchun asos bo'lgan metodologik asosni yaxshi bilmasliklari yoki bu haqida umuman o'ylab ham ko'rmasliklaridir. Natijada muallif voqelikni qanday talqin qilishi, qanday tasvirlashi va nima uchun aynan shunday talqin va tasvirga murojaat qilayotganligi o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida hamda asar o'rganilayotgan mashg'ulotlarida aksar hollarda nazardan qoladi. Shuning uchun metodologiyaning mohiyati, ahamiyati va mazkur predmetga nima uchun u asos bo'lishi kerakligi alohida tadqiq etilishi va amaliyotdagi mutaxassislariga, bo'lajak pedagoglarga etkazilishi zarur. Ana shu zaruratdan kelib Chiqib biz ushbu maqolada mumtoz namunalari o'qitishda metodologik asos – tajalli nazariyasi masalasiga to'xtalamiz. Mumtoz adabiyot o'qitishda metodologiya masalasi hozirgacha alohida o'rganilmagan, lekin

²² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 35-bet.

adabiyotshunoslikda mumtoz adabiyot metodologiyasiga bevosita yoki bilvosita daxldor asarlar yozilgan, tadqiqotlar olib borilgan²³.

Tajalli nazariyasi tasavvufdagi vahdat g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Vahdat nazariyasida esa bir-biriga qarama-qarshi ikki muxolif qarash mavjud: vahdat ul-vujud hamda vahdat ul-shuhud. Abn Arabiy (1290 yilda vafot etgan) ilk bor vahdat ul-vujud ta'limotini o'z asarlarida ilmiy asoslab bergan edi. Bu ta'limotning xususiyatlari, unda zot va sifat, Alloh va olam munosabatlari, vahdat ul-vujudning foydasi hamda tanqidi Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" kitobida bayon etilgan. Bu ta'limotga ko'ra bu borliq olam, moddiy dunyo yagona xoliq Yaratuvchi zotining tajallisidir. "Har narsa unda ko'rinadi; ism, fe'l va sifatlar jihatidan ham borliqlar olami U ko'ringan oyina maqomidadir. Borliqlar olami U bilan qoimdir. Demak, Alloh zoti jihatidan yagona borliqdir va butun mavjudotning o'zagini tashkil qiladi. Olamda hamma narsa Uning zoti bilan qoimdir. Undan tashqaridagi borliqlar Uning ismi, fe'l va sifatlarining tajallilaridan iborat bo'lib, asli qoim borliqlari yo'q, haqiqiy vujud Allohga oiddir"²⁴.

Vahdat ul-shuhud ta'limoti vahdat ul-vujudga raddiya sifatida yuzaga kelgan bo'lib, asoschisi Imomi Rabboniydir (1624 yili vafot etgan). Mutafakkir olamni Alloh zotidan ayri bo'lgan nisbiy mustaqil voqelik deb biladi. Olam Alloh sifatlarining tajallisi, soyasidir, zotining emas. Hatto unga ko'ra Alloh sifatleri ham zoti bilan bir narsa emas, alohida zoid borliq (vujud)dir. Usmon Turar bu ikki nuqtai nazarning o'n bitta farqli jihatini ko'rsatadi²⁵. Ular o'rtasidagi munozara tahlili bizning maqolamiz maqsad doirasiga kirmaganligi bois aytilganlar bilan kifoyalanamiz. Ikki muxolif qarashda tadqiqotimizga bevosita aloqadordir bir nuqta borki, u ham bo'lsa Ibn Arabiy ham, Imomi Rabboniy ham bu borliqni, moddiy dunyoni Buyuk Yaratuvchi sifatlarining tajallisi sifatida talqin etadilar. Uni Sharq mumtoz adabiyotini oziqlantiruvchi hayotbaxsh ildizga mengzash mumkin. Bu nuqtai nazar biz yashayotgan dunyoning ilohiy bir asosga egaligini, unda barcha jonzot, ashyolar o'zaro aloqada, uyg'un bir bog'lanishda, ular ichida inson g'arazi mutlaq (asosiy maqsad) va eng sharaflisi ekanligini ta'kidlaydi. Unga asoslangan adabiyot ham tasvir, ta'rif, talqinda hamda munosabat, murojaat, mulohazada bu qarashni turli mavzularda xilma-xil vositalar, o'ziga xos ifodalarda aks ettirishga intilgan.

O'rni kelganda tasavvufni, tajalli nazariyasini tushunish bilan bog'liq bir holatga diqqat qaratishni joiz bilamiz. Sho'rolar davrida Chop etilgan ba'zi asarlarda bu nazariya G'arbdagi panteizm bilan bir mazmunga ega deb qaraldi, to'g'rirog'i, vahdat ul-vujudagi olamning Alloh sifatleri in'ikosi sifatidagi talqini panteizmning Sharqdagi ko'rinishi deb baholandi. Taniqli

²³ Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. T.: "O'zbekiston", 1970; Hayitmetov A. SHarq adabiyotning ijodiy metodi tarixidan. T.: - 1970; Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. "Yoshlik" jurnali. 1991. 8-son; Qayumov A. Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband... – T.: 1993. 26-bet; Oybek MAT. XIII tom, T.: 1979.

²⁴ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. (Tarjimon Nodirxon Hasan). T.: "Istiqlol", 1999, 145-157-betlar.

²⁵ O'sha asar, 160-bet.

adabiyotshunos Vohid Zohidov “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” kitobida “Panteizm oqimi Evropada o‘ziga xos bo‘lgan formalarda, Sharqda asosan so‘fizm (tasavvufchilik) sifatida yaralgan va mavjud edi” deb yozgan edi va kitobining 8-bobini ana shu da‘voni isbot etishga bag‘ishlaydi²⁶. Bu kitobdan yigirma yil keyin mustaqillik arafasida chop etilgan Malik Oripovning “Alisher Navoiy gumanizmi” kitobida ham tezis shaklida bo‘lsa-da, shunga hamohang fikrlar bildirilgan²⁷. Mustaqillikdan keyingi yillari adabiyotshunoslikda sho‘rolar davridagi bu kabi xato qarashlarga tuzatishlar kiritildi, yanglish talqinlarga nisbatan sog‘lom qarash shakllandi, sun‘iy da‘volar rad etildi. Lekin tajalli va panteizm masalasiga hanuzgacha keskin aniqlik kiritilgani yo‘q. Bu haqida turk faylasuflari, adabiyotshunoslarining bir qator diqqatga sazovor asarlari, tadqiqotlari borligini yuqorida eslatilgan Usmon Turarning asaridan bilamiz va ularning fikrlari bilan tanishamiz: “Holbuki, panteizm bilan vahdat ul-vujudning o‘xshash tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, aslida bir-biridan batamom o‘zgacha tizimlardir. Panteizmda Alloh bilan ashyo bir deb qabul etilsa, vahdati vujudda bunday emas, balki zot jihatidan Allohning hamma narsadan alohida va yagona borliq ekani, mosivoning esa Uning ism va sifatlarining tajallilaridan iborat bo‘lib, zotiy borliqlari yo‘qligi ilgari surilgan... Bu masalada panteizmning aql mahsuli bo‘lgan bir falsafa ekanini, holbuki vahdati vujud aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishilgan bir irfon bo‘lib, aqliy bir nazariya emasligini doimo nazarda tutish kerak. Ya’ni vahdat ul-vujudga erishmoqning yo‘li aqliy va kitobiy emas, sayri suluk natijasida fano martabasiga erishmoqdir”²⁸.

Ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan, kitobat qilingan barcha asarlar hamd va na’t qismlari bilan boshlanadi. Ularda mualliflar Alloh va odam munosabati hamda olamni qanday idrok etishlarini asosan mazkur nazariya asosida bayon etadilar. Demak, muqaddima shunchaki an’ana emas, ayni paytda u muallifning o‘z ijodiy metodi bilan kitobxonni tanishtirish vositasi hamdir. XIV asrda yashab, ijod qilgan yurtdoshimiz Xofiz Xorazmiy devonidagi hamd g‘azallarining birida shunday bayt bor:

Jamoli oftobini jahong‘a jilva qilg‘ali,

Ko‘rursang bordur har zarraning jonida yuz savdo²⁹.

Ya’ni Alloh oftobdek tanuq jamolini jahonga jilva (tajalli) qildiki, bundan (jamol jilvasidan) borliqdagi har bir yaratiqda, hatto har zarra jonida yuz savdo (harakat, taraqqiyot yoki tanazzul)ni ko‘rasan. Demak, jilva borliq, harakat va rivojlanishning asosidir.

²⁶ Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. 268-315-betlar.

²⁷ Aripov M. Gumanizm Alishera Navoi. T.: “O‘zbekiston”, 1991, str. 75-76.

²⁸ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. 154-155-betlar.

²⁹ Xofiz Xorazmiy. Devon. 1-jild, T.: O‘zbekiston, 1981, 21-bet.

Shuningdek, “Xamsa”ning chqich dostoni bo‘lmish “Hayrat ul-abror”da bir emas, bir nechta bob bu mohiyatni yoritishga bag‘ishlangan. Quyidagi misralar Navoiy asarlarining, umuman mumtoz adabiyotimizning metodologik asosini ochiq, aniq va ravshan ifodalab beradi:

Jilvayi husnunga chu yo‘q erdi had,
Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beadam...
Jilvayi husn o‘lg‘ali zohir anga,
Bo‘ldi bu mir‘ot mazohir anga...³⁰

Ogahiy ham xuddi shu fikrni g‘oyat siqiq ifodalarda hamd g‘azallarining birida quyidagicha bayon etgan edi:

Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingga,
Bu ko‘zgu ichra bo‘ldi necha naqshi bula‘jab paydo³¹.

Tajalli nazariyasini adabiy ta‘lim uchun asos qilib olishning qanday ahamiyati bor? Bu savolga biz shunday javob beramiz:

Yosh avlod tarbiyasi sof diniy va milliy qadriyatlar asosida yo‘lga qo‘yiladi. ***Farzandlarimiz ajdodlarning yuksak oliy qadriyatlarini, asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma‘naviy qarashlarini adiblarning turli shakl, usul va ohanglardagi san‘at durdonalari misolida o‘rganadilar.*** Ilgari surilayotgan g‘oya qanchalik ulug‘ va olijanob bo‘lmasin, agar u yalong‘och holatda, bir xil ohang, bir xil shaklda berilaversa, qadri va ahamiyatiga soya tushadi. Ayniqsa, hayotga ko‘proq dunyoning zohir alomatlari bilan aralashadigan, idrok etadigan, tashqi ko‘rinishga tez beriluvchan, tajribasiz yosh avlod ta‘limida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham buyuk ajdodlarimiz o‘zlarining ma‘rifiy, axloqiy qarashlarini badiiy adabiyot vositasida xalqqa singdirishni ta‘limning eng qulay va ta‘sirchan vositasi deb bilganlar. Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Boburning “Mubayyin”, Munisining “Savodi ta‘lim”, Anbar Otinning “Alifbo” kabi asarlari shunday yuksak maqsad natijasi o‘laroq yaratilgandir.

Tarbiyalanuvchilar butun dunyoda kechayotgan mafkuraviy bo‘hron sharoitida ***pokiza diniy dunyoqarashdan ma‘naviyatimiz, mafkuramizga yot bo‘lgan zararli oqimlar iddaolarini farqlay oladilar.*** Tasavvufning, undagi tajalli nazariyasining ahamiyatini taniqli ilohiyotshunos

³⁰ Alisher Navoiy. MAT. 7-jild. Hayrat ul-abror. T.: “Fan”, 199..., -bet.

³¹ Ogahiy. Taʼviz ul-oshiqin. T.: “FAN”, 1960, 43-bet.

olim, Kembridj universiteti professori Timoti J. Uinter (Abdulkhakim Murod) shunday izohlaydi: “Tariximizning tanglik yuzaga kelgan ushbu lahzalarida (ya’ni musulmon olamida ichki ziddiyat, bo‘linish sodir bo‘lgan hozirgi kunlarda – V.Q.) ummat uchun omon qolishning yagona real umidi bor. U ham bo‘lsa, murakkab klassik ijmo vositasida bir to‘xtamga kelingan “o‘rta yo‘l”ni (tasavvufni – V.Q.) tiklashdir. U asrlar osha mashaqqatli munozara va ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan edi. Aynan shu ijmo birlashish uchun asos bo‘lishi mumkin. Ammo u biz qalblarimizni poklasak va ularni qon-qardoshlik, hurmat, bag‘rikenglik va murosa singari islomiy qadriyatlar bilan to‘ldirsakkina qayta tiklanishi mumkin”³². Shuni ham ta’kidlash lozimki, bunda mumtoz adabiyot darslari dinni targ‘ib etish, diniy-ma’rifiy va’zxonlik mashg‘ulotlariga aylanib ketmaslik kerak. Aytmoqchimizki, adabiyot bu san’at ekan, uni faqat fikr uqish darsiga aytantirib yubormaslik lozim. Asosiy maqsad – oliy qadriyatlar ifodasi bo‘lmish mazmunni qanday san’atkorona tarzda berilishini idrok ettirish va bu go‘zallikka oshno qilgan holda mohiyatni singdirish muhimdir.

Tabiat Ulug‘ Tangri sifatlarining jilvasi ekan, borliqdagi jonli, jonsiz har bir yaratiq asralishi, himoya qilinishi, ilohiy xilqati bilan e’zozlanishga sazovor ekanligini o‘tib kelayotgan avlod his etadi va butun borliq oldida mas’ul ekanligini angelaydi. Adabiyotdagi yetakchi ishq mavzusidagi asosiy timsollar – yor, oshiq, raqib obrazlari tasvirida shoirlar aksar hollarda tabiatga murojaat etadilar, tashbehni tabiatdan oladilar. Mashuqani, uning tana uzvlarini gulga, sarvga, oyga, kun, yulduzlarga qiyos etiladi, oshiq bulbul, parvonaga, raqib tikan, it kabilarga mengzanadi. Shoirlarning ishqiy mavzuda yozilgan har bir she’ridan bunga misollar topish mumkin. Bu ham Allohning jamol, kamol, jalol va qudrat kabi sifatlarining insonda, tabiatda zuhur etishiga ishoradir. Chunki insondagi (ma’shuqadagi) husn-u malohat, tabiatdagi tarovat o‘zicha shunchaki mavjud bo‘lgan go‘zallik bo‘lmay, balki Alloh jamol va kamolining aksi, jilvalanishi bo‘lgani uchun ham suyuqli va azizdir. ***Tarbiyalanuvchilarga inson va tabiat go‘zalligi vasf qilingan asarlar o‘rganishga havola etilar ekan, bu eng avvalo shu go‘zallikning manbai bo‘lmish Buyuk Tangri madhi ekanligini uqtirib borish lozim.*** Bu haqiqat Alisher Navoiyning maktab, o‘rta maxsus hamda oliy ta’limda oldindan o‘rganib kelinayotgan mashhur “O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadir” misrasi bilan boshlanadigan g‘azalning mana bu baytida san’atkorona, ayni paytda oChiqliq ifodada o‘z aksini topgan:

Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi ezid taolo sun’ naqqoshindadir.

³² Timoti J. Uinter. XXI asrda islom (postmodern dunyoda qiblani topish). T.: “SHarq”, 2005, 289-bet.

Ya'ni Yorning husn naqshi – go'zalligidagi insonni hayratga soladigan har go'zallik chizgilarini ko'rib, men hayrat etmayman, chunki uning ijodkori (sun' naqqoshi) Ezid (Alloh) taolodir. Boshqa birov, ya'ni oddiy inson shunday go'zallik yarata olsa, hayratlanarli bo'lur edi, lekin bu Alloh uchun odatiy va oddiy bir ishdirki, bundan ajablanishning hojati yo'q. Mazkur tushuncha bilan tarbiyalangan shaxs go'zallik manbaiga (insonga, tabiatga) o'zining nafsoniy istaklarini qondirish vositasi deb emas, balki ma'naviy yuksalish, ruhiy poklanish manbai sifatida yondashadi. Ishqning tajalliy mohiyati "Mahbub ul-qulub"da shunday izhlanadi va u faqat Navoiy ijodi uchungina emas, butun o'zbek mumtoz adabiyotida ishqning qanday tushunilishi kerakligiga ishora qiladi: "Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoq va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq"³³.

Tajalli nazariyasi ***tarbiyalanuvchilarga tabiat va inson yagona bir voqelikning mahsuli, o'zaro ilohiy aloqadorlik rishtalari bilan bog'langan "qondosh" ekanligini singdirishda bemisl ta'limotdir.*** Tabiatdagi har bir jonli va jonsiz yaratq odam zotining yaralishdagi yaqinlari sanaladi. Navoiy go'zal bir she'rida bu ma'noni shunday ifodalagan edi:

Ey husn aro sohib g'ino, xurshid otangdir, oy ano,
Istar esang nisbat yano, ham sarv ag'o, ham gul singil³⁴.

Insonning tabiatga bog'liqligi, ularning o'zaro taqozosi shu darajadagi, odam bolasi o'z jinsi – bani bashar orasidan hamdard, yaqin topolmasa, tabiatga yuzlanadi, suyanadi, ularning biriga etkazilgan talofot, zarar ikkinchisida falokat asarlari bilan namoyon bo'ladi. Qays qalbidagi junun boisini tushunmagan odamlardan ketib, sahroda parrandayu darrandalar bilan uns tutinadi, dardini ularga aytadi. Farhod kimsasizlikda jon berar ekan, o'zini yolg'iz sezmaydi, o'limi oldidan so'nggi ilinji, iltijosini mahrami sifatida bodi saboga bayon etadi. "Sab'ai Sayyor"da Bahrom Diloromni topgach, o'zidan ketadi va ov sayri vaqtida sanoqsiz hayvon va qushlarga qirg'in keltiradi. Tabiatga ko'tarilgan xanjar javobsiz qolmasligini Navoiy asar oxiridagi fojeali yakun orqali o'z o'quvchisiga singdirishga harakat qiladi. Chunki odam boshqa yaratiglar bilan oxirat tomon yagona tabiat kemasida safarga Chiqqan, u borliqdagi boshqa mavjudotlar bilan bir butun borliq daraxti shoxidan joy olgan. Kishi o'tirgan kemasiga bolta urish bilan o'zini dengizga g'arq qiladi, o'zi o'tirgan shoxni arralaganni oqil deb bo'lmaydi.

Mumtoz adabiyotda fikr va tasvir ko'pincha ramziy qobiqqa o'rab, majoziy bo'yoq bilan jilolab bayon etiladi. Har bir obraz yoki badiiy detal qaysidir bir ilohiy voqelikka, falsafiy

³³ Alisher Navoiy. MAT. -jild. Mahbub ul-qulub. T.: «Fan», 1990, ...-bet.

³⁴ Alisher Navoiy. MAT. 5-jild. Xazoyin ul-maoniyy. Badoe' ul-vasat. T.: «Fan», 1990, 266-bet.

mohiyatga ishora qiladi, uni izohlaydi, tasvirlaydi, tavsif etadi. N. I. Prigarina aytmoqchi, bir badiiy asarda go‘yo ikkita mustaqil tekst paydo bo‘lganki, ulardan biri – tasvir tamoyiliga mansub she‘riy tekst bo‘lsa, ikkinchi mazmun talqini zaminidan hosil bo‘ladigan tasavvufiy matn edi.³⁵ Ularning birinchisi zohiriy – yuzaga qalqib turgan ma’no qatlami, ikkinchisi esa ramz yoki majozlar ishorasi orqali anglashiladigan botiniy – ichki ma’no qatlami deb atalmoqda. Zohiriy ma’no qatlamidagi dunyoviy tushuncha va timsollar botinda butunlay boshqa, kutilmagan yangi mazmunga ega bo‘ladilar. Masalan, Yor – Alloh, payg‘ambar, murshid, do‘st, vatan kabi obraz va tushunchalarni; oshiq – banda, ummat, murid, vatandan ayrilgan shaxs; raqib – shayton, nafs, dunyo va boshqalarni; may – ilohiy ishq, soch – o‘tkinchi dunyo va boshqalar. Bular haqida keyingi bobda alohida to‘xtalamiz. Asarning asl – botiniy ma’nosini anglash uchun o‘quvchidan katta tayyorgarlik, nozikfahmlilik, izlanish talab etiladi. Maxsus bilim va diplomga ega mutaxassislar ham mumtoz asarlarning ana shu ichki ma’nosini tushunishga qiynaladilar. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin: adiblarimiz oliy qadriyatlar, bashar mohiyati, insoniy umri mazmuni talqin etilgan asarlarni bu yanglig‘ ramz va majozlarga o‘ramay, ochiq ifoda etsalar bo‘lmaydimi? Shunda bu haqiqatlarni ko‘pchilik oson tushunib, hayotlariga tatbiq etgan bo‘larmidi? Javob shuki, haqiqat qadrli va go‘zal bo‘lishiga qaramay, u qanchalar yalong‘och bo‘lsa, shunchalar beqadr yoki qadri o‘tkinchi bo‘ladi. Ramz va majoz pardalarini ko‘tarib unga etishish go‘yo mashaqqat bilan visolga erishishdek kabi, lazzati ham, qadri ham baland bo‘ladi va kishi xotirasida uzoq saqlanadi. Qolaversa, ramz va majoz kabi badiiy unsurlar o‘quvchi badiiy didini o‘stiradi, u endi badiiy asarning yuzaki shakli, zohirdagi ma’nosi bilangina kifoyalanmay, uning matni bag‘riga cho‘mishga harakat qiladi. Eng asosiysi, ***tarbiyalanuvchilar borliqdagi hamma narsalar: jonli, jonsiz mavjudotlar, insonning o‘zi, har bir a‘zosi – barcha-barchasi zahirida inson uchun zohiriga qaraganda muhimroq bo‘lgan ibrat-ishoralar mavjudligini anglab etadilar.*** Botinda pinhon bu ibratlarni faqat va faqat aql, ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘rish, ma’rifat qulog‘i-la eshitish mumkinligini his etadilar. Dunyo voqeliklari orqali haqiqatni, oxiratni anglatish Qur’on usuli ekanligi bu ilohiy bitikda Yaratganning o‘zi tomonidan bir necha bor ta’kidlangan. Mana ularning biri: “Osmonlar va Erning yaratilishida, tun va kunning o‘rin almashib turishida aql egalari uchun alomatlar bordir. Ular turib ham, o‘tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar va osmonlaru Erning yaratilishi haqida fikr yuritadilar: Ey Robbimiz! Bu (koinot)ni behuda yaratmagansan...”³⁶ Demak, yosh avlodni aql egalari qilib, osmonu Er yaratilishi haqida fikr yuritadiganlardan qilib tarbiyalamog‘imiz farzdir. Bizningcha, bu erda **aql egalari** ayricha urg‘u oladi. Ha, aynan aql

³⁵ Prigarina N. I. Xafiz i vliyanie sufizma na formirovaniya yazyka persidskoy poezii. «Sufizi v kontekste musul’manskoy kul’tury». – M., 1989.

³⁶ Qur’oni karim (ma’no larining tarjima va tafsiri). Oli Imron surasi, 190-191-oyatlar. Abdulaziz Mansur tarjima va tafsiri. T.: Toshkent Islom universiteti, 2004, 75-bet.

egalari, aql qullari emas. Aqlga qullik nafsga qaramlikdir. Chunki nafs har qanday etuk aqlni orqasidan ergashtirib, sohibini kishi xayoliga ham keltirishi qiyin bo'lgan jinoyatlarga, zalolatga boshlab ketadi va aql shaytoniy nafs uchun ishlay boshlaydi. Bunday aql bandasi dunyoni faqat jism ko'zi bilan, nafsoniy istaklar nazari bilan ko'ra oladi xolos. Aql egasi bo'lmoq o'z nafsini ustidan egalik qilmoqlikdir. O'z aqliga egalik qilish, aql imkoniyatlarini hidoyat sari yo'llash, ezgulik manzili tomon etaklash eng katta saodat ekanligini tarbiyalanuvchilarga singdirish lozim, toki ularda qalb ko'zlari ochilsin. Shunda o'quvchi, talabalar dunyo voqeliklarining har biriga ibrat nazari bilan qarashga, borliqdagi Buyuk Yaratuvchining jamolini, jalolini, kamolini ilg'ash, mushohada qilishga, ularning zamiridagi hikmatni uqishga odatlanadilar. Bu insoniy kamolot sifatlarining a'losidir.

Tajalliga asoslangan tasavvuf ta'limoti eru osmonda Hazrati Insonning g'oyat oliy maqomini tayin etadi. U Parvardigorning erdagi xalifasidir, yuksak sharaf sohibidir. Xoliqi Biru Borning barcha yaratiqlari go'zal, latif, ajib, lekin ular sirasida Odam zurriyotlarining qadri behad baland. Bu qarash adabiy ta'limda ilgaridan izchil o'rganib kelinayotgan "Hayrat ul-abror"da shunday ifodalanadi:

Gar falakiyotu anosirdurur,
Barcha saminqadr javohirdurur.
Koniya hayvoniy, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliysifot.
Barchasini garchi latif aylading,
Barchadin insonni sharif aylading³⁷.

Aziziddin Nasafiy o'zini o'ziga insonni quyidagicha tanishtiradi: "Seni kichik inson (insoni sug'ro) va kichik olam (olami sug'ro) deydilar, butun olamning o'zini esa ulug' inson (insoni kubro) va ulug' olam (olam kubro) deydilar. Sen har ikki olamning nusxasi va timsoli – belgisisan. Ulug' olamda bor narsalar kichik olamda mavjuddir"³⁸. Katta va kichik olamlarning timsoli, tajallisi bo'lmish inson barcha ilohiy ijod sababchisi, maqsadi edi. Navoiy ta'biri bilan aytganda: "Ganjing aro naqd farovon edi, Lek baridin g'araz inson edi". ***Bu haqiqatlarni anglagan shaxs o'zining insoniylik maqomiga loyiq, sharafiga munosib yashashga intiladi, o'zi kabi boshqa sharaf egalari – insonlarni ilohiy g'araz ekanligini bilib, ularga ham yuksak ehtiros va hurmat tuyg'usi bilan munosabatda bo'ladi.*** Yana anglaydiki, bani bashar farzandlari

³⁷ Alisher Navoiy. MAT. 7-jild. Hayrat ul-abror. T.: "Fan", 199..., -bet.

³⁸ Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. 5-bet.

orasidagi adovat, dushmanlik ana shu sharaftan ularni mahrum etib qo'yadi va mutafakkir shoirning

Olam ahli, bilingiz, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish

misralari ma'nosini teran idrok etadi. Bir-biriga Yor bo'lish avvalo o'zining, so'ngra bir-birining sharaf haqini ado etishdirki, bu "yorlig'", ya'ni xudo yorliqadigan ishdir.

Insonni sharaflash bu uning qalbini e'zozlash, ko'ngilni ka'ba kabi ulug'lash demak. Chunki ko'ngil – butun musulmonlar qiblasini bo'lmish ka'badan ham muqaddas sajdagoh. Negaki, moddiy dunyo (jumladan inson jismi ham) Alloh ism va sifatlarining in'ikosi bo'lsa, ko'ngil olamlarning yaratilishiga sabab bo'lmish Parvardigor ishqining ma'vosidir. Shu ishq tufayli bizga ma'lum bo'lgan moddiy va ma'naviy borliqlar xalq qilingan. Shuning uchun mumtoz adabiyotda ko'ngil aldohida mavzuda yoritiladi, poetik obraz sifatida moddiylashtirilib talqin etiladi. Ko'ngilni tuzatmoq, bezamoq, bironlar dilini shod etish, uning hidoyatiga vasila bo'lish sharaf sohiblarining amali; ko'ngil holidan bexabarlik, o'zgalar dilini og'ritishlik insoniy sharaftan bebahrlik misolidir. Navoiyning

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron o'lsa obod aylagay³⁹

bayti ana shu haqiqatlar ifodasi o'laroq yaratilgan desak, xato bo'lmaydi.

Tasavvufga ko'ra eng oliy tajalli ko'ngildadir. Ko'ngil vujud ichidagi shunchaki ma'naviy bir borliq bo'lib, u quddusiyat, subhonlik, azimat, jamol va jaloliatning jilva qiladigan makonidir. Jilva eng oliy va yaqin Do'st borlig'ini ko'ngilga olib kiradi. Bunga muvaffaq bo'lgan shaxsning botinida Ko'ngil va Do'stning uyg'unlashuvi, birlashuvi (vahdat) yuz beradi va u poklik, samimiyat, halolik ma'vosiga aylanadi. Buni tarbiyalanuvchilarga anglatishning katta ma'rifiy ahamiyati bor. Ular faqat zohiriy ko'rinish bilangina o'ralashib qolmay, o'z botinlariga, qalb holatiga nazar tashlashni o'rganadilar, o'zlarining ichki olamini tahlil eta boshlaydilar.

Demak, mumtoz namunalarni tajalli dunyoqarashi asosida o'rganish **yosh avlodni olam va odam voqeliklarini qalb bilan idrok etadigan, botinini ma'naviy olam go'zalliklari bilan oroyish etgan ko'ngil kishisini tarbiyalashga yo'l ochadi.**

³⁹Alisher Navoiy. Topmadim. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1988, 735-b.

Mumtoz adiblarning ko'plab asarlarida, jumladan, maktab dasturiga kiritilgan namunalarida ko'ngil timsoliga murojaat etilganligi ham shundan.

Ushbu maqolada bayon qilingan fikrlardan biz tavsiya etayotgan metodologik asosning mohiyati va ahamiyati oydinlashdi. Mumtoz namunalarni o'qitishda to'laqonli ta'lim berish, tarbiyani yo'lga qo'yish uchun mutaxassislardan mazkur ta'limotning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirish talab etiladi.

Tajalli nazariyasiga ko'ra ruboiylarni tahlil qilish

Ko'hna Sharq jahon adabiyotiga o'nlab daho so'z ustalarini etkazib berdi. Ularning ijodiga doimo uzoq va yaqin xorijda ham qiziqish katta bo'lgan. Shuning uchun Sharq adiblari asarlari o'z yurtida bo'lgani kabi chetda ham qizg'in tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqdalar.

Klassiklarimiz ijodi aksar hollarda muayyan adabiy turlar, janrlar bo'yicha, Shuningdek, u yoki bu asarlari alohida olingan holda o'rganib kelindi. Bu taxlit kuzatishlar albatta o'rganishning birlamchi bosqichlarida o'rinli hamda muhim sanaladi. Zarra bir nur quyoshga, qatra ummonga ishora qilganidek, kichik hajmli janrdagi asar ham muallifining ijodiy o'ziga xosligiga dalolat qila oladi. Lekin buyuk adabiy siymolarning merosini butun bo'y-basti bilan ko'rish, asarlarning badiiy va g'oyaviy mohiyatini chuqur va teran anglash, boshqalardan ajralib turuvchi o'ziga xos badiiy olamini yaxlit tasavvur qilish, tushunish uchun barcha yozmishlarini yagona bir tizim (sistema) sifatida tadqiq etish lozim bo'ladi.

Muallifning yaxlit bir butunlik bo'lgan ijodi ichidagi fard, qit'a g'azallaridan tortib yirik epik asarlari bir-birini to'ldiradi, izohlaydi, mazmuniy, g'oyaviy hamda badiiy jihatdan rivojlantiradi.

Mumtoz Sharq adabiyoti namoyondalari ijodini shu nuqtai nazardan o'rganish murakkab, ayni paytda o'ta qiziqarli hamdir. Chunki Sharq she'riyati uchun hali ilmda yaxshi o'rganilmagan ma'no qatlamlilik xos bo'lib, yaxlit bir tizim (sistema) sifatida o'rganilgan ijod ma'no qatlamlarining har birida o'ziga xos yangi badiiy olam sifatida qayta inkishof etishni talab qiladi. Avvalo bu ma'no qatlamlari qay tarzda vujudga keladi, ularning chegarasini qanday belgilash mumkin kabi savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

Mana, yigirma yildan ortiq vaqt o'tdiki, mumtoz adabiyotimiz, asosan, she'riyatda zohiriy va botiniy ma'no mavjudligi to'g'risida gapirilmoqda. U yoki bu shoirlar ijodini tadqiq etishda, she'rlarini tahlil qilishda bu ikki ma'no tomoniga diqqat qilinmoqda. Aynan shu narsa badiiy asarning ma'no qatlamlilikidir. Bizningcha ham, qatlamlilik mavjud bo'lgan asarlarda ma'no asosan ikki qatlamda namoyon bo'ladi: a) zohiriy – yuzaga qalqib turgan ma'no. Uni badiiy saviyasi, tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan kitobxonlar tushunishi, idrok etishi mumkin; b)

botiniy – tushunishda ma'lum tayyorgarlik talab etiladigan asarning tag ma'nosi. Bu ma'no zohiriy mazmundan kam qimmatga ega bo'lmagan, ba'zan esa asarning g'oyaviy, mazmuniy mag'zini, ijodkor badiiy niyatini o'zida aks ettirgan bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilayotgan, mumtoz she'riyatning muhim belgilaridan biri bo'lgan ma'no qatlamlilik hodisasi ilmiy mukammal o'rganilmaganligi uchun uni tushunish va talqin qilishda chalkashliklarga, ba'zan jo'nlikka yo'l qo'yilmoqda. Avvalo chalkashlik haqida. Adabiyotshunos I. Haqqulov Ahmad Yassaviy hikmatlariga yozgan so'zboshi maqolasida she'riyatda polifoniya to'g'risida yozarkan: "Necha asrlik adabiyotimiz uchun yangilik emas. Polifoniya – ko'pohangli, ko'pma'noli degani... O'zbek adabiyotida polifonik tafakkur Ahmad Yassaviydan boshlanib, Navoiy poeziyasida yuksak bosqichga ko'tarilgan..." kabi fikrlarni bildirgan⁴⁰. Polifoniya nazariyasini Baxtin Dostoevskiy asar(roman)lari orqali kashf etgan bo'lib, unga ko'ra polifoniya epik asarlarga xosdir. Bu nazariyani o'zbek adabiyotshunosligida noto'g'ri tushunilishini tanqid qilgan M. Olimov ta'biri bilan aytganda: "romanda muallif o'z qahramonlarini yuksak bir ob'ektivlik bilan tasvirlash barobarida barcha qahramonlariga va barcha qahramonlari o'zaro bir-biriga sub'ektiv munosabatini ham shekspirona ehtiros bilan namoyon etadi"⁴¹. Bu fikrlardan kelib chiqsak, I. Haqqulov qarashlariga nisbatan e'tiroz tug'ilishi tabiiy bo'lib qoladi. Birinchidan, she'riyatda, ayniqsa, mumtoz she'riyatda shoir (lirik qahramon)ning boshqa obrazlarga obektiv munosabati ko'rinmaydi. She'riyat sub'ektiv munosabat mahsulidir. Undagi har bir obrazga, voqelikka muallifning oldindan munosabati, fikri shakllangan bo'ladi. Ikkinchidan, "qahramonlarning o'zaro bir-birlariga sub'ektiv munosabati" kuzatilsa ham, ular o'y-fikr tahlilidan iborat bo'lmay, oldindan belgilab qo'yilgan, doimiy va qat'iy, Shuningdek, shakliy munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, olim polifoniyani u yoki bu bir hikmatda, she'rlardagi muayyan obrazlarning o'zaro munosabatida emas, balki Yassaviyning turli hikmatlarida talqin etilgan bir necha obrazga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarida ko'radi. Agar shu taxlit tushunilsa, dunyoda polifonik bo'lmagan shoirning o'zi qolmaydi. Shuning uchun polifoniya nazariyasini she'riyatga, xususan, mumtoz Sharq she'riyatiga tatbiq qilib bo'lmaydi.

Endi qatlamlilikni tushunishdagi jo'nlik to'g'risida. Bu shundan iboratki, mumtoz she'rlarni zohiriy va botiniy jihatdan tahlillashda ilmiy asoslab-asoslamay ularni bir qolipda, bir mazmunda talqin qilinmoqda. Aksariyat maqola va tadqiqatlarni o'qisangiz, obrazlar asosan quyidagicha tushuntiriladi: Yor – zohiriy ma'noga ko'ra inson (ayol), botiniy ma'noga ko'ra Ollohdrir. Oshiq –zohiriy ma'noga ko'ra inson (er kishi), botiniy ma'noga ko'ra so'fiy. Lekin nima uchun aynan shu she'rda Yor Olloh ma'nosida tushunilishi kerak? Unga ishora qiladigan

⁴⁰ Haqqulov I. Ahmad YAssaviy. (So'zboshi maqola) Ahmad YAssaviy. Hikmatlar. T. 1991y., 5-40- betlar.

⁴¹ Olimov M. O'zbek tanqidchiligida M.M. Baxtin polifoniya nazariyasini tushunish va talqin etishdagi ayrim chalkashliklar haqida. Respublika yosh olimlarining an'anaviy ilmiy konferenuiyasi. T. "Fan", 1989y, 29- bet.

aniq belgilar bormi? Balki shoir faqat insonni, ya'ni zohiriy ma'nonigina nazarda tutgandir? kabi savollar ko'pincha ochiq qoladi. Ba'zi tahlillarda esa g'azalning avvalgi baytlardagi zohiriy ma'no keyingi baytlarda botiniy ma'noga almashadi qabilidagi fikrlarni o'qib qolamizki, ular ham umuman asoslanmaydi.

Mumtoz she'riyatda uchta asosiy obraz bor: Ma'shuqa, Oshiq, Raqib. Qolgan obrazlar bularning qay biri atrofida guruhlashadi, ularni to'ldiradi, izohlaydi. Masalan, Yor (ma'shuqa) obrazi atrofida gul, oy, sarv, Layli kabi; Oshiq atrofida parvona, bulbul, Majnun kabi; Raqib atrofida it, tikan singari obraz yoki obraz-detallar guruhlanadi. Lekin bu markaziy obrazlar ichida ham Yor yetakchi mavqe tutadi. Chunki mumtoz she'riyatdagi qat'iy shakllangan munosabatlar, tasvirlar, qo'llanadigan leksik va poetik figuralarning barchasi asosan u bilan bog'liq. Kuzatishimizcha, mumtoz she'riyatni ma'no qatlamiga ajratishda ham Yor obraziga asosiy diqqat qilinmog'i kerak. Oldindan aytib qo'yish kerakki, mumtoz she'riyatdagi hamma asarlar ham ma'no qatlamiga ega emas. Ba'zi she'rlar faqat bir ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Bir ma'no qatlamiga ega she'rlarni mazmuniga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

a) inson (ayol) go'zalligi madh etilgan Yoki unga ko'ngil izhori bayon qilingan she'rlar. Masalan: Atoiyning "Kel, ey dilbar, bo'ston vaqti bo'ldi" g'azali;

b) diniy ma'rifat targ'ib etilgan she'rlar. Masalan: Yassaviyning bir qator hikmatlari, Navoiyning hamd, na't g'azallari;

v) peyzaj she'rlar. Masalan: Ogahiyning "Navro'z", "Qish" g'azallari;

g) ijtimoiy-siyosiy she'rlar: Navoiyning "Tuhfatul afkor" qasidasi;

d) hasbi hol she'rlar: Bobur she'rlari, Muja'rim Obid masnaviysi.

Ushbu zohiriy ma'nolardan tashqari she'rlarning botinida diniy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ma'nolarni o'zida jam etgan asarlar ko'p ma'noli, ko'p qatlamli hisoblanadi. Xo'sh, ularning botiniy ma'nosini qanday aniqlash mumkin? Bizningcha, ma'no qatlamlarini ajratishda quyidagi xususiyatlar inobatga olinishi lozim:

a) ijodkor yashagan davrdagi mavjud adabiy an'analar, ya'ni qanday adabiy an'analar ta'siri ostida adibning ijodiy tafakkuri shakllanganligi;

b) ijodkorning shaxsiy hayoti, taqdiri, ya'ni adib sub'ektining u yaratgan asarlar badiiy olamiga ta'siri;

v) mavjud mafkuraviy voqelik, ya'ni adib ijodiy tafakkuri shakllanishiga ta'sir etgan g'oyalar, mafkuralar.

Ushbu fikrlarga tayangan holda misol tariqasida ayrim mumtoz adiblar ijodiga xos bo'lgan ma'no qatlamlilik xususiyati borasidagi kuzatishlarimiz bilan o'rtoqlashamiz.

Avvalo Pahlavon Mahmud ijodiga murojaat qilamiz.

Uzoqdan qarasam labing purxanda,

Ozod edim, tag'in bo'libman banda.
Ozodlikdan har bir banda erur shod,
Men shodmanki, senga bo'libman banda.

Bu tarjima she'rning zohiriy ma'nosini sharhlashga hojat Yo'q. Unda dil izhori berilgan. Botiniy ma'nosi bor-yo'qligini yuqoridagi fikrlarga tayanib tekshirib ko'ramiz. Avvalo, shoir shaxsiyatiga e'tibor qilamiz.

Pahlavon Mahmud O'rta Osiyoda valiylik siyrati bilan sharaflangan zotdir. Bunday shaxslar hayotini insonlarga diniy ma'rifat tarqatish, Haq ishqini talqin etishga bag'ishlaydilar. Shunga ko'ra she'rining botinida markaziy obraz Yor Olloh ekanligi oydinlashadi. Qolaversa, adibning ijodiy tafakkuri shakllanishidagi bosh omil ham din va tasavvufdir. Ruboiydagi "banda" so'zining takrori ham Yaratganga bandalik targ'ibini ta'kidlab turibdi. Faqat "uzoqdan qarasam", "labing", "purxanda" so'zlarini sharhlash lozim. "Uzoqdan qarasam" birikmasi xalqona ta'bir bo'lib, odatda, "o'ylab ko'rsam", "o'ylab qarasam" ma'nolariga to'g'ri keladi. "Lab" og'iz bilan bog'liq tushuncha. Og'iz esa o'z navbatida til bilan bog'liq. "Til" so'z tushunchasini xayolimizga etaklab keladi. "So'z" arab tilida kalomdir. "Kalom" islomiy tushunchaga ko'ra Qur'onni anglatadi. "Purxanda" ilohiy kalomga nisbatan ishlatilganda xushxabar, mo'aminlar uchun ilohiy mujda ma'nosini bildiradi. Demak, birinchi misraning ma'nosi quyidagicha: O'ylab qarasam, ey Parvardigorim, sening kaloming – Qur'onda bizlar uchun xushxabar mujdalar bor ekan.

Ikkinchi misrada aytilgan "ozod"lik bu dunyodagi insonning o'zligini, o'z Yaratuvchisini tanimay harakat va faoliyatida o'zini mutlaq erkin hisoblashidir. Bu erda insonning o'z Yaratuvchisidan bexabar, g'aflatdaligi nazarda tutiladi. "Tag'in" so'zi oldinda bo'lgan va hozirda takrorlanayotgan narsa, holatga ishora qilmoqda. Ya'ni, bandalik qachondir lirik qahramonning holati edi. Bu Qur'ondagi "Voqea" surasining 72-73- oyatlarida ta'kidlangan "al-miysoq" davriga ishoradir. Ma'nosi: Men shu kungacha Sendan g'aflatda edim. Endi Seni tanidimu, Senga banda ekanligimni angladim, esladim.

"Ozodlikdan har bir banda erur shod". Inson tabiatiga xos narsa bu erkin va ozod bo'lishga intilishdir. Hech kimga qaram bo'lmagan, har ishda erki o'zida bo'lgan kishi o'zini baxtiyor sezadi degan fikr bizda hukmron. Lekin inson o'zining ichki ehtiyojlarini qondirish ketidan quvib, ularning quliga aylanib qoladi. Borib-borib jismonan ozod, ma'nan o'z nafsiga qul, qaram kimsaga aylanadi. Faqat Yaratganga bandalikni yodda tutgan kishigina bu dunyoda jismonan va ma'nan ozod bo'la oladi. Shuning uchun shoir Ollohga qarata "Men shodmanki, senga bo'libman banda" deydi. Mazkur ruboyida ikki ma'no qatlamini kuzatmoqdamiz.

Ruboiylarni janr kompozitsiyasiga ko'ra o'rganish

Ruboiy Sharq adabiyotida keng tarqalgan, qalam ahli orasida baland nufuzga ega janrdir. O'zbek mumtoz shoirlarining bir qanchasi bu janrda barakali ijod etganlar. Shu sababli adabiy ta'limda ruboiyda ilgaridan davomli tarzda o'qitib kelingan. Mustaqillik yillari turli dasturlar asosida yaratilgan 5-10-sinf darsliklaridan (8-sinf darsligi bundan mustasno) Navoiy, Bobur, Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy ruboiylari joy olgan. Joriy dasturga ko'ra 5-va 9-sinfda Bobur ruboiylari o'rganiladi.

Ruboiy haqida o'zbek adabiyotshunosligida bir qancha ishlar qilingan: ko'plab maqolalar Yozilgan, ilmiy risolalar chop etilgan.

Adabiyotshunoslik va metodika ilmlarida talay ishlar qilingan bo'lsa-da, ruboiy janri nazariy jihatdan to'la, mukammal o'rganilgan deyish qiyin. Ayniqsa, she'rda bildirilgan fikr, tasvirlangan holat, ifodalangan kechinmalarni ruboiyning mo'jaz kompozitsiyasiga joylashtirish masalasi to'laqonli o'rganilmagan. Bu boradagi hozirgacha yagona bo'lgan kuzatishlar marhum adabiyotshunos M.Yunusovning "Barhayot an'analar" kitobida uchraydi: "Liro-epik asarlarda va lirikaning boshqa janrlarida ma'lum kompozitsiya bo'lganidek, ruboiyda ham aniq **mazmuniy kompozitsiya** bor. ... ruboiydagi kompozitsiya shoir aytmoqchi bo'lgan katta poetik fikrning mantiqiy izchil bo'lishiga, misralardagi so'z, obrazlarning ma'nosini mukammal echilishi, hal etilishiga xizmat qiladi. Odatda ruboiyning birinchi misrai **tezis**, ikkinchisi **antitezis**, uchinchi **moddai ruboiya** (yoki xulosa uchun asos bo'ladigan ko'pri), nihoyat to'rtinchi misrai **sintez** shaklida namoyon bo'ladi⁴²". Olim ushbu fikrlariga misol tariqasida mashhur shoirlarining, jumladan, Boburning mashhur "Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur" ruboiysini keltirib, tahlil qiladi. Olim fikrlarining diqqatga sazovorligini e'tirof etgan holda u ruboiyda mazmunning she'r kompozitsiyasiga o'rinish shakllarini to'la qamrab olmasligini ham aytib o'tish kerak. Ilmiy jihatdan bu masala etarli darajada yoritilmas ekan, ta'limning barcha bosqichlarida ruboiyni tushunish, tushuntirish, tahlillash nomukammal bo'lib qolaveradi.

Bizningcha, ruboiyda mazmuniy kompozitsiya (ifodalanayotgan mazmunni she'r kompozitsiyasiga o'rinish shakllari) quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Birinchi misrada muayyan bir fikr (tezis) bildiriladi, u ruboiy mavzusini belgilab beradi. Ikkinchi misrada unga zid, o'xshash yoki muqobil fikr ilgari suriladi. Demak, ikkinchi misra birinchiga nisbatan nafaqat antitezis, ayni paytda parallellik, muqobillik xarakterida ham bo'lishi mumkin. Uchinchi misra oldingi ikki fikrni umumlashtiradi (ya'ni moddai ruboiya), to'rtinchi misra esa barchasini xulosalaydi. Birinchi va ikkinchi misralarning o'zaro antiteza munosabatiga yuqorida tahlili berilgan Boburning "topqusidur" radifli g'azalini (9-sinf, 2006), bu ikki misraning o'zaro parallelligiga Navoiyning "Zohid, senga hur, menga jonona kerak" misrasi bilan

⁴² Yunusov M. Barhayot an'analar. -T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1969. 83-bet.

boshlanuvchi ruboiysi (10-sinf, 1993), ularning muqobilligiga Boburning quyidagi ruboiysini keltirish mumkin:

Yoqahru g‘azab birla meni tufroq qil!
Yobahri inoyatingda meni mustag‘raq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,
Har nav’ sening rizong erur andoq qil! (5-sinf, 2007)

2. Birinchi misrada shoir tomonidan tashlangan tezis ikkinchi va uchinchi misralarda birin- ketin davom ettiriladi, rivojlantiriladi va to‘rtinchi misrada ularga yakun yasaladi. Demak, 1-3- misralar o‘zaro tadrijiylik munosabatida, to‘rtinchi misrada ulardan xulosa chiqariladi, umumlashmalar qilinadi. Navoiyning

O‘lsam yasamang munda mozorimni mening,
Yuklab elting jismi figorimni mening.
O‘tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘ying tani nizorimni mening (6-sinf, 2002)

ruboiysi, yana shu shoirning “Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz”, (10-sinf, 1993) Boburning “Jonimda mening hayoti jonim sensen”, “Ko‘pdin berikim, Yori diyorim yo‘qtur”, (5-sinf, 2007), Munisning “Rahm etmadi ul kofiri xudroy, netay” (10-sinf, 2004) she’rlari bu shaklga misol bo‘la oladi.

3. Ruboiy ikki qismga ajratilib, dastlabki qism – birinchi va ikkinchi misralarda ma’lum bir fikr, holat tasviri yoki kechinmalar bayoni beriladi-da, keyingi qism – uchinchi va to‘rtinchi misralarda ularning ramziy yoki majoziy tavsifi bilan ruboiyda qalamga olingan mavzu xulosalanadi. Navoiyning mashhur “G‘urbatta g‘arib shodmon bo‘lmas emish”, (10-sinf, 1993), Boburning “Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur” (5-sinf, 2007), Ogahiyning

Badtiynat ulus bum kibi shumdurur
Tarbiyat angakim etsa, mazmumdurur.
Zaqqum niholi ichsa gar obihayot,
Oxir berajak mevasi zaqqumdurur (10-sinf, 1993)

ruboiylari mazkur shaklda bitilgan. Bu qismlarning o'zni ba'zida almashishi mumkin: avval ramziy tavsif beriladi, keyin asosiy mazmun ochiq ifodalarda xulosalanadi. Yana Ogahiydan bunga misol keltiramiz:

Qilmoq bila parvarish tikan gul bo'lmas,
Ham tarbiyat ila zog' bulbul bo'lmas.
Gar asli yomong'a yaxshiliq ming qilsang,
Yaxshiliq oning niyati bikkull bo'lmas. (10-sinf, 1993)

4. Ruboiyning to'rtala misrasida muayyan fikr, holat yoki kechinmaning turli jihatlari bayon etiladi, tavsif yoki ta'rif qilinadi. Yuqoridagi shakllar kabi oxirgi misra she'rga yakun yasamaydi, balki o'quvchi xulosani to'rt misra mazmunining umumlashmasidan o'zi chiqarib oladi. Navoiyning

Xo'b el bila suhbut tutibon xo'b o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingni-yu mahbub o'lg'il (5-sinf, 1997)

ruboiysidan umumiy tarzda yaxshilar bilan do'st tutinish va insonlar bilan muomalada mumtoz bo'lish kerakligi haqida xulosa kelib chiqadi. Shuningdek, Boburning "Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa" (9-sinf, 2006), Munisning "So'z ichra Navoiyki jahongirdurur" (10-sinf, 2004) ruboiylari mazkur mazmuniy kompozitsiyada yaratilgan.

Bu janr namunalarini sinchiklab tekshirilsa yana boshqa shakllar ham chiqar balki, lekin o'zbek ruboiylarining aksariyati asosan shu to'rt mazmun kompozitsiyasi asosida yaratilganligiga guvoh bo'ldik. Adabiyot muallimi ularni bilishi va tahlilda ularni inobatga olishi lozim bo'ladi.

Maktab darsliklaridagi ruboiylarni o'rganish yo'llari

O'quvchilar 5-sinfda ilk bor ruboiy bilan tanishar ekanlar, janrning o'ziga xos belgilari to'g'risida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Bu sinfda she'rlarni o'rganishga kirishishdan oldin ruboiy atamasi arabcha bo'lib, to'rtlik ma'nosini berishi, lekin har qanday to'rtlik ruboiy bo'lolmasligi, buning uchun u aruz vaznidagi hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yozilishini qayd etib o'tish bilan kifoyalaniladi. Shu o'rinda fanlararo bog'lanish –

integratsiyadan foydalanish o‘rinli bo‘lishini biz tajribalarimiz davomida kuzatdik. Mazkur nazariy bilimlarni berishda **geometrik** shakllar, ular to‘g‘risidagi tushunchalardan foydalanish darsda qulaylik tug‘diradi. O‘quvchilar boshlang‘ich sinfdayoq kvadrat to‘g‘risida tushuncha olganlar va uning qoidasini yoddan biladilar. 5-sinf o‘quvchisining to‘rtburchak va kvadratning farqini bilishi oddiy to‘rtlik va ruboiy farqini to‘g‘ri anglatishda qo‘l keladi. Masalan, kvadrat va ruboiyni quyidagicha solishtirish mumkin. Avval o‘quvchilarga shunday savollar beriladi:

1. Kvadrat nima va to‘rtburchak nima?
2. Har qanday to‘rtburchakni kvadrat deya olamizmi?

Javob olingach, ruboiy ta‘rifiga o‘tiladi. O‘qituvchi ruboiy haqida darslikdagi nazariy ma‘lumotlarni quyidagicha qoida shakliga keltirib, o‘quvchilar daftariga yozdirib qo‘yadi: to‘rt misradan iborat, ibratli fikrlar, shoirning ichki kechinmalari, o‘y-mulohazalari bayon etilgan, aruz vaznidagi hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yoziladigan she‘r shakliga ruboiy deyiladi.

So‘ng ikki – geometrik va adabiy tushuncha yonma-yon qo‘yilib shunday qiyoslanadi:

Kvadrat to‘rtburchakdir, lekin har qanday to‘rtburchak kvadrat emas. Kvadrat bo‘lishi uchun to‘rtburchakning to‘rtala tomoni teng bo‘lishi kerak. Ruboiy to‘rtlikdir, lekin har qanday to‘rtlik ruboiy emas. Ruboiy bo‘lishi uchun to‘rtlik aruzdagi hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yozilishi kerak. Buni sinf taxtasida yoki vatmanga chizilgan ko‘rgazmali qurolida yoxud texnika vositalardan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan maktablarda proektor orqali quyidagicha aks ettirish mumkin:

Kvadrat	Ruboiy
Kvadrat to‘rtburchakdir	Ruboiy to‘rtlikdir
Lekin har qanday to‘rtburchak kvadrat emas	Lekin har qanday to‘rtlik ruboiy emas
Kvadrat bo‘lishi uchun to‘rtburchakning to‘rtala tomoni teng bo‘lishi kerak	Ruboiy bo‘lishi uchun to‘rtlik aruzdagi hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yozilishi kerak
Agar to‘rtala tomoni teng bo‘lmasa, oddiy to‘rtburchak sanaladi	Agar hazaj bahrining ahram va ahrab tarmoqlarida yozilmasa, oddiy to‘rtlik sanaladi.

Amaldagi 5-sinf darsligida Boburning 22 ruboiysi berilgan⁴³. Albatta, ajratilgan ikki soatda ularning barchasi o'rganilmaydi. Bu faqat o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham dars jarayonida tahlillashda, darsdan so'ng mustaqil o'rganishda tanlash imkonini beradi. Darslikda shoirning besh ruboiysi tahlili berilgan. Ular 5-sinf bolasining yosh xususiyati, bilim saviyasi, mumtoz she'r namunasini tushunish darajasi inobatga olinib tahlil qilingan. Ularning biriga diqqat qarataylik.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z erini qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ruboiy darslikda shunday tahlil qilingan: "...Ruboiyning tili sodda, tushunarli. Endi siz fikrga va uning ifodalanishiga e'tibor qiling.

1-satr: Baxtim yo'qligi jonimga balo bo'ldi.

O'ylab ko'ramiz: nega joniga balo? Shuning uchunki, baxtsizlik uni vatanidan ayrdi. Demak, uning baxti – vatanda bo'lishdir.

2-satr: Nima ishni qilgan bo'lsam, xato bo'ldi. Ular qaysi ishlar va nega xato? Vatanni tashlab chiqishi – xato. Uning uchun jonini bermagani – xato. Boshqa ellarga bosh olib ketishi – xato.

3-satr: O'z erni qo'yib, Hindiston tomon to'g'ri bo'ldi.

4-satr: Ey Xudo nima qilay, qanchalar yuzim qaro bo'ldi.

Qattiq gunoh qilib qo'ygan, elining ishonchini oqlamagan kishini "yuzi qaro" deyilar. Demak, u Hindistonga otlanishini o'zi uchun gunohi azim hisoblamogda. Endi bu fikrning ifodasiga, qanday aytilganiga diqqat qarataylik.

Uchinchi satrdagi "yuzlandim" ("yuzimni burdim") so'zida "yuz" ishlatilmoqda. U to'rtinchi satrdagi "yuz qarolig'"ni kuchaytiradi, ya'ni o'sha yuzim qora bo'ldi. "Hind" so'zida ikki ma'no: 1. Hindiston. 2. Qora. Bu so'z ham "yuz qarolig'"ni kuchaytirishga yordam beradi. Ya'ni: yuzim, uni qoraga burganim uchun, qora bo'ldi"⁴⁴.

Biz ushbu ruboiy tahlilini bejiz to'liq keltirmadik. Birinchidan, bu ruboiy boshqa ruboiylarga qaraganda keng sharhlangan, 5-sinf o'quvchisi uchun tushunarli, sodda tilda, uning mazmun-mohiyati, badiiyati metodik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda bayon etilgan.

⁴³ Ahmedov S. va boshq. 5-sinf darsligi. T. "Sharq", 2007. 257-265-betlar.

⁴⁴ Ahmedov S. va boshq. 5-sinf darsligi. T. "Sharq", 2007. 259-bet.

Ikkinchidan, aynan mazkur tahlil shakli darslikdagi boshqa ruboiylarni sharhlash uchun o'quvchilarga ham, o'qituvchiga ham namuna bo'lib xizmat qiladi.

Darslikda Bobur ijodi yuzasidan sakkizta savol va topshiriq berilgan. Ularda shu mavzu yuzasidan berilgan maqoladagi faktlar va tahlillarni so'zlab berish talab qilingan. O'quvchiga kitobdagi tayyor tahlilni yana qaytib so'zlab berish qiziq bo'lmaydi. U shunchaki o'qigan, eshitganlarini aytib beradi xolos. Shuning uchun mazkur savol va topshiriqlarga to'xtalmay, mashg'ulotlar davomida darslikda berilgan bir necha ruboiyni yuqoridagi na'muna shaklida o'quvchilarning o'ziga mustaqil tahlil qildirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda o'quvchi izlanadi, har bir satr, so'z ustida bosh qotiradi, ruboiy mazmunini, ifodadagi badiiyatini o'zi kashf qila boshlaydi. Ana shunda adabiyot o'qitishdan ko'zlangan maqsad amalga osha boradi.

O'qituvchi darsda savol, topshiriq hamda qo'shimcha izohlar bilan yo'naltirib turish vazifasini bajargani ma'qul. Har bir misraga alohida savol qo'yib, bolalarning tushunishlarini, tahlillarini osonlashtirishi mumkin. Masalan, darslikdagi birinchi ruboiyga quyidagicha savol, topshiriqlar qo'yish mumkin.

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

1. "Yod etmas etmish kishini g'urbatda kishi" misrasi orqali shoir nima demoqchi bo'lgan: g'urbatdagi (vatandan uzoqdagi) kishi boshqa bir kishini yod etmas ekan ma'nosidami yoki g'urbatdagi kishini birov yo'qlamas, yodlamas ekan mazmunidami? Fikringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

2. Ikkinchi misradagi "mehnat" so'zining ushbu she'rdagi va hozirda qo'llanayotgan ma'nolari orasidagi tafovutga diqqat qiling. Shoir qanday mehnat (mashaqqat) to'g'risida Siz bilan dardlashmoqda?

3. Bobur mamlakat podshohi bo'la turib nega o'zini g'ariblikda sezadi? Nega sevina olmaydi?

4. Ruboiydagi bir-biriga ma'no jihatidan aloqador bo'lgan uyadosh so'zlarni toping. Ular orasidagi mazmuniy bog'liqlikni izohlang.

5. Ushbu ruboiyga sarlavha qo'yish kerak bo'lsa, Siz uni qanday nomlagan bo'lardingiz?

Shu taxlit boshqa ruboiylar tahlil qilinsa, bolalarda she'rni tushunish, his etish ko'nikmalari ortadi, sharhlash malakasi shakllana boradi. Eng asosiysi, tahlilga nibatan o'zida ishonch uyg'onadi, mustaqil ishlashga rag'bat ortadi.

O‘qituvchi darslikdagi lug‘atda ma’nosi izohlanmagan, berilmagan tushunilishi qiyin yoki o‘quvchilar xato tushunishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni oldindan izohlab berishi kerak. Masalan, “Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur” ruboiysidagi “naxvat” so‘zining ma’nosi darslikdagi lug‘atda berilmagan. U buzuq, buzuqlik deganidir, lekin misrada kibr, mag‘rurlik ma’nosida kelgan. “Ahhbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz...” ruboiysining uchinchi satridagi “Chun gardishi charx bu durur...” iborasi “O‘tkinchi bu dunyoning ishi shunday ekan” ma’nosida ekanligini o‘quvchilar bilmasligi mumkin. Shuningdek, “Har erda gul bo‘lsa – tikon bo‘lsa, ne tong” ruboiysida “ne tong” birikmasi “ajablanarli emas” degani ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Qofiya va radif haqidagi nazariy ma’lumotni aksar muallimlar ruboiylarni o‘rganib bo‘lgandan keyin ikkinchi darsning so‘ngida berishadi. Bu ham mumkin. Lekin bu nazariy ma’lumotlar ruboiylarni o‘rganishdan oldin berilishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki har bir ruboiy tahlil qilinganida ularning qofiyalanishiga, radifiga ham e’tibor qaratilsa, ular haqida berilgan nazariy ma’lumot dars davomida mustahkamlanib boradi. Darslikda ruboiylar ikki shaklda qofiyalanishi aytilgan bo‘lsada, ularning nomlanishi keltirilmagan. Muallim bu o‘rinda a-a-b-a tarzidagi ruboiylar xosa *ruboiy*, a-a-a-a shaklida qofiyalanganlari *tarona ruboiy* deyilishini aytib, yozdirib qo‘ysa, foydadan holi bo‘lmaydi.

Yuqori sinflarda (joriy dasturga ko‘ra 9-sinfda) ruboiy o‘rganilganda quyi (5-) sinfda janr haqida tushuncha berilganligi uchun savollar vositasida u to‘g‘risidagi ma’lumotlar eslab olinadi. Qo‘shimcha ma’lumot sifatida vazn jihatdan 24 ko‘rinishga egaligini qayd etish mumkin. Agar o‘qituvchining o‘zi aruz haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lsa, aruz vazni, jumladan ruboiy yoziladigan bahr va tarmoqlar to‘g‘risida qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazishi maqsadga muvofiq.

Darslikda berilgan ruboiylar tahliliga o‘tishdan oldin o‘qituvchi Bobur ruboiyyotiga xos ikki jihatni ta’kidlab o‘tishi lozim. Shoir, birinchidan, tabiatan ijtimoiy-falsafiy bo‘lgan ruboiy janriga kundalik, hayotiy mazmunni kiritdi. Ikkinchidan, g‘azallarida bo‘lgani kabi uning ko‘pgina ruboiylari sarson-sargardon kechgan hayotining ko‘zgusi, ko‘rgan-kechirganlarining iqrornomalariday taassurot qoldiradi. Bobur ruboiylarining tili, ifodasining soddaligi, samimiyati kitobxonni o‘ziga bog‘lab oladi.

Darslikdagi “Ko‘pdin berikim, Yoru diyorim yo‘qtur”, “Beqaydmenu xarobi siym ermasmen” hamda “Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi” ruboiylari hasbi hol xarakterida bo‘lib, ular afg‘on yurtida, hind elida tug‘ilgan eridan uzoqdagi shoirning Vatan sog‘inchi, yurtga talpinishlarini ifoda etgan satrlardir.

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen.

Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Ushbu ruboiyda Boburning shaxs sifatidagi ma'naviy fazilatlari, shoh sifatida himmatining balandligi hamda Vatanga qaytish orzusi va bu orzuga etishishga ishonchi sodda va samimiy tarzda aks etgan. "Beqayd" biror yer yoki narsaga bog'liq bo'lmaslik, shu kabi narsalardan ozod bo'lishlikdir. Hukmdorlar o'z mamlakatiga qayd etilgan – bog'langan bo'ladi, boshqa yurtlarni bosib olsalar, u erda beqayd – doimiy emaslar. O'zga urning siym-zarini olib, yana yurtiga qaytish taraddudida bo'ladi. Bobur Afg'onistonda o'zini beqayd bilsa ham, ayrim hukmdorlar kabi "xarobi siym", "mol yig'ishtirur laim" bo'lmadi. Uning himmati mol-dunyodan baland edi. Uchinchi misrada yuqoridagi o'zining ikki da'vosiga Kobuldagi hayotini misol keltiradi va ularni (1- va 2-misralarni) umumlashtiradi. Oxirgi misrada asl niyati bilan she'rni xulosalab, muqim ermasman deydi, bu uning doimo vataniga qaytish o'yida bo'lganligidan darak beradi. Ruboiyning mazmuniy kompozitsiya tuzilishini yaxshi idrok etilmasa, dastlabki ikki misra bilan keyingi misralarni bog'lashda qoqilishlar bo'lishi mumkin. Lekin bu ko'ngil tilagi unga armon bo'lib qolganligini o'quvchilarga quyidagi ruboiy orqali anglatiladi:

Ko'ngli tilagan murodig'a etsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikkisi muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Darsliklarda odatda an'anaviy mavzu va ohanglarda yozilgan ruboiylaridan namunalar beriladi. Ayniqsa, muhabbat mavzuidagi ruboiylarda Boburning hassos hamda zargar shoir ekanligi namoyon bo'ladi. Quyidagi ruboiy tahlilida buning isbotini ko'rish mumkin:

Raftoriyu qaddig'a ravonim sadqa,
Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa,
Og'ziyu belig'a budu nobudim sarf,
Ko'ziyu labig'a jismu jonim sadqa.

Ushbu ruboiy B. Qosimov va boshqalarning 2004-yil nashr etilgan 10-sinf darsligida o'quvchilarga mos tarzda tahlil qilib berilgan⁴⁵.

⁴⁵ Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi", 2004. 272-273-b.

Ruboiy hazajning axrab shoxchasida yozilgan: Maʼuvlu mafoʼiyu mafoʼiyu fauvl
Maʼuvlu mafoʼiyu mafoʼiyu fauvl.

Misralar biri ikkinchisini davom ettirmaydi, izohlamaydi, ular oʻzaro qiyoslanmaydi ham. Ular oshiq sadoqatini ifodalovchi “teng huquqli” satrlardir. Toʻrtinchi mazmuniy kompozitsiya guruhiga mansub bu sheʼr yor goʻzalligini vasf qilish barobarida oʻz sadoqatini izhor etish vositasi boʻlib xizmat qilgan. Ruboiyda mazmuniga koʻra oʻzaro yaqin boʻlgan “ravonim”, “jahonim”, “jonim” soʻzlari qofiyadosh, “sadqa” soʻzi radif boʻlib kelyapti. Misralardagi tuygʻuni anglash, mazmunni tushunib olish uchun oʻquvchilarga tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar maʼnosi beriladi. “Raftor” – yurish, “ravon” soʻzida ham yurish maʼnosi bor. Lekin u holda maʼno chiqmaydi. “Ravon”ning yana bir maʼnosi jondir. Endi oʻrniga qoʻyib qoʻramiz: Yurishi va qaddi-qomatiga jonim fido boʻlsin. Bunda maʼno bor. Ikkinchi misradagi ayrim soʻzlarga diqqat qilaylik. “Bir”, “ikki” soʻzlari orasida tazod (ziddlik) bor, oz-koʻp maʼnolari singdirilgan. Nega “ikki jahon” ekanligini bolalarning oʻzlari ham sharhlay oladi. Chunki islomiy tushunchaga koʻra ikki (biz yashab turgan va narigi) dunyo bor. “Boqish” va “jahon” soʻzlarida ham maʼlum bogʻlanish topish mumkin (jahonga boqiladi). Demak, misrada soʻzlar shu qadar tanlab, hamma maʼno ohanglari koʻzda tutib ishlatilganki, bu yuksak sanʼatkorlikdan nishona ekanligi tahlilda oʻqituvchi tomonidan alohida taʼkidlanishi lozim.

“Bud-u nobud” bor-yoʻq degani. Nega shoir maʼshuqaning ogʻzi va beliga bor-yoʻgʻini bagʻishlamoqchi? Goʻzalligi uchun, albatta. Lekin bu erda boshqa gap ham bor. Mumtoz adabiyotda noziklik goʻzallik mezonidir. Ogʻizning torligi, belning ingichkaligi mubolagʻa bilan shu qadar kichraytiriladiki, goʻyo goʻzalning bu ikki aʼzosi – ogʻzi va belining bor yoki yoʻqligiga shoirona lutf bilan shak keltiriladi. Bu qarashdan mohirona foydalangan Bobur “bor-yoʻqligi nomaʼlum boʻlgan bel va ogʻziga mening bor-u yoʻgʻim (davlatim, hayotim) sarf boʻlsin”, deb lutf qiladi.

Bobur ruboiylarining islom dini, tasavvuf bilan bogʻliqligini ham adabiyot muallimi eʼtibordan chetda qoldirmasligi kerak. Shu oʻrinda Bobur ijodining tasavvuf taʼlimotiga munosabati adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tomonidan tadqiq etilganligini eslatib oʻtish oʻrinli boʻladi⁴⁶. Quyidagi ruboiyga eʼtibor qarataylik:

Jonimda mening hayoti jonim sensen,
Jismimda mening ruhi ravonim sensen.
Boburni seningdek oʻzga yori azizi,
Alqissaki, umri jovidonim sensen.

⁴⁶Ibrohim Haqqul. Kim nimaga tayanadi? -T.: - 2007. 76-bet.

She'r sodda tilda, ravon uslubda yozilgan. Tushunarsiz so'z yo'q deyish mumkin. "Jovidon" so'zining ma'nosini o'quvchilar unutgan bo'lsalar, uning "abadiy" degan ma'noni eslatib qo'yish kifoya. Anglashiladiki, "umri jovidon" abadiy umr demakdir. Ruboiy bir qarashda sevikli yorga murojaat, unga bo'lgan tuyg'ular ifodasi ekani ko'rinib turibdi. Botiniga nazar tashlansa, o'z Yaratuvchisiga dildan ko'ngil qo'ygan islom kishisining ishq izhorini tuyamiz. Chunki iymoni but, o'zligini tanigan kishigina dunyo va oxirat xayrliklari manbai bo'lmish Xoliq Egani "hayoti jonim", "ruhi ravonim", "umri jovidonim" deya e'zoz etadi. Xalqimiz orasida kattayu kichikka yod bo'lib ketgan Boburning

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonliq hargiz
Har kimki, yamon bo'lsa, jazo topqusidur

ruboiysi aslida Qur'on oyatlari ta'sirida yozilganligini o'quvchiga uqtirib o'tish joiz. Bu ruboiy Qur'onning "Zalzala" surasidagi *"fa man ya'mal misqola zarrotin xoyron yaro va man ya'mal misqola zarrotin sharron yaro"* (Kim misqolchalik xayrli ish qilsa ham va kim misqolcha gunoh qilsa ham o'z ajrini oladi) oyatining she'riy talqinidir. Mazkur sharhlar orqali Islom dini kishilarni faqat ezgulikka chorlovchi, yomonliklardan qaytaruvchi, insonni boshqa insonlarga, millatga, Vatanga va butun insoniyatga yaxshilik qilishga undovchi mafkura ekanligini o'quvchilarga ta'kidlab tushuntirish kerak, toki ular yurtboshimizning dinni inson ma'naviyatini shakllantiruvchi omil sifatida alohida uqtirib o'tganligi⁴⁷ mohiyatini anglab etsinlar.

⁴⁷ Karimov I. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008. 35-41-bet.

Xulosa

Muayyan bir xalqning jahon hamjamiyatida tan olingan o'zni va ovozigacha ega bo'lishida umuminsoniy manfaatlarga mos qadriyatlari, borliqni, hayotni, dunyo voqealiklarini idrok va talqin etishning o'ziga xos shakl hamda tizimiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har millat boshqalardan farq qiluvchi yashash tamoyili, fikrlash tarzi bilan o'zligini ko'rsatadi va tasdiq etadi. O'zlikni tasdiq va namoyon etuvchi yorqin vositalardan biri - "... millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti uning tili va adabiyotidir"⁴⁸. Insonning borliqni go'zallik o'lchovlari asosida idrok etib, tom ma'nodagi odamiylik siyratini kasb etishida so'z san'atining ayricha o'zni va ahamiyati bor. Jamiyat a'zolarining kitobxonlik darajasi u yoki bu mamlakat aholisining ma'naviy maqomini belgilovchi yetakchi omillardan biri sifatida olinishi ham bejiz emas.

Adabiyot darslari ana shu jarayonni ongli tarzda muayyan maqsadga yo'naltiradi, tarbiyalanuvchilarda yuksak badiiy didni shakllantiradi, sara asarlarni puch mag'izli kitoblardan farqlashni o'rgatadi, falsafiy qarashlarga boy asarlarni tushunish, ular asosida mushohada yuritish malakasini hosil qiladi. Shundagina badiiy adabiyot kishi hayotining ajralmas bo'lagi, kunlik hayoti mazmuniga aylanib qoladi. Yuksak didli kitobxon kishilar jamiyati ma'naviy tozaradi, ma'naviy tozargan jamiyat esa har tomonlama taraqqiy topishi barchaga ayon va tushunarli haqiqatdir. Respublikamizda mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga o'zini mas'ul bilgan shaxslar – oddiy xodimdan davlat rahbarigacha madaniy, adabiy merosni xalqimizga, xususan, yosh avlod ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratayotgani ham shundan⁴⁹.

Mumtoz adabiyot namunalarini, xususan, ruboiyni o'qitishdagi murakkabliklar, bir tomondan, asarlarning tili, ya'ni ularning leksik qatlami, morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'rganilayotgan matnning bu uch sath bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarini hal qila bilishi kerak. Buning uchun esa undan tilshunoslik, xususan, til tarixi, lingvopoetika bo'yicha etarli tasavvur, bilim va tushunchaga ega bo'lish talab etiladi. Ikkinchi tomondan, murakkabliklar mumtoz adabiyotning poetik xususiyatlariga aloqadorki, ular o'qituvchining adabiyotshunoslik, xususan, mumtoz poetika yuzasidan bilim va saviyasi darajasiga ko'ra hal etiladi.

Mumtoz adabiyot o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishda, badiiy didini o'stirishda, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan ma'naviy, madaniy merosdir. Bu davr adabiyotini o'qitishda, bir tomondan, oliy san'at

⁴⁸ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -T.: "SHarq", 1999. 23-bet.

⁴⁹ Karimov I. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. 30-35-betlar.

darajasida yaratilgan namunalarga tayanib tarbiyalanuvchilar o'y-fikrlari, kechinmalarning, tuyg'ularining tarbiya topishi – tozarishi maqsad qilib olinsa, ikkinchi tomondan, ularda milliy vatanparvarlik, yurt uchun mas'ullik tuyg'usini kamol toptirish vazifasi amalga oshiriladi. Bunda boshqa mumtoz janrlar qatori ruboiyning o'rni o'ziga xosdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning va adabiyot o'qitishning bosh maqsadi bo'lmish barkamol shaxsni tarbiyalash ishida mumtoz adabiyotni bosh omillardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Yaralishidan to bugungi kungacha insonlarga komillik yo'llarida mayoq bo'lib kelayotgan, qadimiy qadriyatlarimiz, ma'naviy an'alarimiz hamda uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz bilan bevosita bog'liq bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalari to'lig'icha o'tmish adabiyotning sara namunlarida o'z ifodasini topgan. Ruboiy janri falsafa, pedagogika va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, xalqning ma'naviy, ma'rifiy tarbiyasida o'ziga xos o'ringa ega edi. Bugungi kunda ham ana shu asriy tajribalardan foydalanish, xususan, yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish ishida bu an'analarga murojaat etish yaxshi samara berishi shubhasiz.

O'quvchilarda ruboiy haqida nazariy bilimlarni shakllantirishda adabiyotdagi nazariy ma'lumotlarni, qoidalarni o'zaro qiyoslagan holda hamda fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish orqali murakkabliklarni soddalashtirish, qiyin tushuncha, qoidalarni osonlashtirish yo'lini tutishlik maqsadga muvofiqdir. Nazariy ma'lumotlarni quruq yodlatish, ularga statistik xarakterdagi sxolastik topshiriqlarni bajartirish uchungina murojaat etishdan qochib, o'rganilayotgan asarlar mazmunini anglash, g'oyasini idrok etish, badiiyatini his qilish vositasi sifatida yondashmoq kerak.

Ruboiylarni o'rganishda she'r janri, mavzusi, hajmi kabi jihatlar inobatga olinishi zarur. Mazkur she'riy shakl nechanchi sinflarda o'qitilishidan kelib chiqib, uning janr xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar birdaniga yoki bosqichma-bosqich berib boriladi: ruboiy ham tuyuq, g'azal kabi kichik va o'rta janrlarni o'rganishda bo'lganidek she'rlarni misrama-misra, baytma-bayt sharhlash yo'lini tutish mumkin. She'rning janri va hajmi uni tahlillash yo'riqlarini belgilab beradi.

O'quvchilar ruboiy janri namunalarini tahlil qilish yo'riqlari, ketma-ketligi bilan tanishtirilgan bo'lishlari kerak. Tahlilda avvalo she'rning mazmuni, unda bildirilgan fikr aniqlab olinib, so'ng shakl va ifodaga e'tibor qaratiladi. Demak, mumtoz she'riyat namunalarini o'qitishda shakldan mazmunga emas, balki mazmundan shaklga qarab boriladi. Chunki she'rda qanday fikr aytilganini yaxshi anglamay turib undagi badiiyatni, ifodadagi o'ziga xoslikni idrok etish amri mahol.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni karim (ma'nolarining tarjima va tafsiri). Abdulaziz Mansur tarjima va tafsiri. T.: Toshkent Islom universiteti, 2004.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -T.: “Sharq”, 1999.
4. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. -T.: “O'qituvchi”1967.
5. Alisher Navoiy. Topmadim. T.: G'.G'ulom nomidagi nashr., 1988.
6. Alisher Navoiy. MAT. 7-jild. Hayrat ul-abror. T.: “Fan”, 1993.
7. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. II jild, -T.: “Fan”, 1983.
8. Ahmedov S. va boshq. 5-sinf darsligi. T. “Sharq”, 2007.
9. Aliev A va boshq. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T.: “O'zbekiston”, 1994.
10. Aripov M. Gumanizm Alishera Navoi. T.: “O'zbekiston”, 1991.
11. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi'. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
12. Hayitmetov A. Sharq adabiyotning ijodiy metodi tarixidan. T.: - 1970.
13. Haqqulov I. Ahmad Yassaviy. (So'zboshi maqola) Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: - 1991.
14. Ibrohim Haqqul. Kim nimaga tayanadi? -T.: - 2007.
15. Isroil Subhoni. Buxoroning etti yulduzi. Samarqand. G'.G'ulom nashriyotining Samarqand filiali, 1991.
16. Komilov N., To'xlijev B. O'zbek adabiyoti.-T.: “O'qituvchi”, 1993.
17. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. T.: “FAN”, 1960.
18. Oybek. MAT. XIII tom, T.: “FAN”, 1979.
19. Olimov M. O'zbek tanqidchiligida M.M. Baxtin polifoniya nazariyasini tushunish va talqin etishdagi ayrim chalkashliklar haqida. Respublika yosh olimlarining an'anaviy ilmiy konferenriyasi. T. “Fan”, 1990.
20. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolar va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.
21. Qodirov V. Maktabda Bobur ijodini o'rganish. -T.: Respublika ta'lim markazi, 2009.
22. Qodirov V. Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. Andijon. 2010.
23. Qayumov A. Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband... – T.: 1993.
24. Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. T.: “O'qituvchi”, 2004.
25. Qosimov B. va boshq. Adabiyot. Majmua. 10-sinf darsligi. -T.: “O'qituvchi”, 2004.

26. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun. //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997.
27. To‘xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Akademik litseylarning 1-bosqichi uchun. T.: “Cho‘lpon”, 2007.
28. Xofiz Xorazmiy. Devon. 1-jild, T.: O‘zbekiston, 1981.
29. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. 7-sinf darsligi. – T.: «Sharq», 2005.
30. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: 1996.
31. Yunusov M. Barhayot an’analar. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1969.
32. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. T.: “O‘zbekiston”, 1970;
33. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. “Yoshlik” jurnali. 1991.
34. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
35. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, Moskva, “Rus tili”, 1981.
36. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, Moskva, “Rus tili”, 1981.
37. O‘zbek adabiyoti. 9-sinf. (Tuzuvchilar: N.Komilov, B.To‘xliyev) T.: “O‘qituvchi”, 1993.